BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 8-noyabr, №45 (3107)

4-5 BUGUNGI VATAN TAYANCHLARI – ERTANGI YURT USTUNLARI

8 HARBIYCHA IDEALLIK TAJRIBASI

10-11 “ENG ILG‘OR TIBBIY GURUH”LAR BELLASHDI

15 YOSHLAR HARBIYLAR HUZURIDA



YURT QO‘RIMOQ – YIGITNING OLIY BURCHI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
t.me/mv_vatanparvar_uz
facebook.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

MAKTABLARDA TA’LIM-TARBIYA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI BO‘YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktablarda musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy-vatanparvarlik fanlari sifatini oshirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi

Bu haqda 30-sentabr kuni Pedagogik mahorat milliy institutida o‘qituvchilar bilan bo‘lgan muloqotda aytilgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu uch yo‘nalishning shaxs kamolotidagi o‘rniga ahamiyat qaratib, ularni o‘qitishni takomillashtirish dolzarbligini ta’kidlagan edi.

Masalan, maktablardagi musiqa o‘qituvchilarining 21 foizi o‘rta maxsus ma’lumotli. Ba’zilarining o‘zi cholg‘u chala olmaydi. Sababi musiqa o‘qituvchilarining amaliy malaka oshirish tizimi yo‘q, bu borada san’at maktablari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Madaniyat institutlari bitiruvchilari o‘qituvchilikka qabul qilinmaydi.

Shu bois maktablarda saboqlar sifatini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

Xususan, musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati baholanib, malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu yo‘nalish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari, o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi ishlab chiqiladi.

“Turon” maktab teatrining ijobiy tajribasi asosida maktablarda “Iqtidor” havaskorlar badiiy jamoalari tashkil etiladi. Oliy ta’lim muassasalarining musiqa va san’at yo‘nalishi bitiruvchilariga maktablarda ishlashga ruxsat beriladi.

Hududlardagi musiqa va san’at maktablarini umumta’lim maktablariga tayanch maktab sifatida biriktirish, iqtidorli o‘quvchilarni kashf etish maqsadida muntazam ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish ham muhim. Maktablarda 22 ta olimpiya, 19 ta noolimpiya, 4 ta milliy sport turlari o‘rgatiladi. Lekin jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanmalar yo‘q. O‘quvchilarni seleksiya qilish tizimli emas.

Shuning uchun jismoniy tarbiya fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilib, o‘quv dasturlari takomillashtiriladi. Ushbu fan o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab, bosqichma-bosqich hamma joyda maktab sport klublari tashkil etiladi. Bu yo‘nalishda ham o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi, maktablarning sport bo‘yicha reyting tizimi ishlab chiqiladi.

Bugun zamonning o‘zi har bir fuqarodan vatanparvar bo‘lishni taqozo etmoqda. Bunda, ayniqsa harbiy xizmatchilar, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari o‘rnak bo‘lishlari kerak.

Hozir maktablarda qariyb 10 ming nafar ana shunday pedagog faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin ularning 27 foizi nomutaxassis. 2 ming 750 ta maktabda ushbu fan uchun sharoit yetarli emas.

Shu bois endi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o‘tadi. Endi bu vazifaga Qurolli Kuchlar zaxirasidagi harbiylar ishga qabul qilinadi.

Mazkur fan bo‘yicha yangi o‘quv dasturi va darsliklar yaratiladi. Har bir tuman va shaharda bittadan maktab negizida “Jasorat maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Mutasaddilar shu boradagi ishlarni tashkil etish rejalari yuzasidan axborot berdi. Oliy o‘quv yurtlarida mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglar tayyorlashni tubdan o‘zgartirish, malaka talablari va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zA

Yorqin samara

TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR NATIJASI MAKTABLARDAGI O‘ZGARISHLARDA YAQQOL IFODASINI TOPMOQDA

Prezident tashrifidan so‘ng...

Xayrli amalning katta-kichigi bo‘lmaydi. Nabirasining daftar olishi uchun pul bergan onaxon, bolasini to‘lov-shartnoma asosida universitetda o‘qitayotgan ota-ona, mahalla yoshlari uchun maktab qurib bergan tadbirkor...

Bu ro‘yxatni hali ko‘p davom ettirsak bo‘ladi. Yo‘nalishlar, shakl-shamoyil boshqa-boshqa bo‘lishi mumkin, lekin maqsad bir nuqtada tutashadi. Bu – ta’lim, farzandlar kelajagiga sarmoya kiritish.

O‘zbekistonda katta-kichik loyiha va tashabbuslarga sarf etilayotgan mablag‘ning ko‘p qismi yosh avlod tarbiyasiga daxldor masalalarga yo‘naltirilmoqda.

Oddiy misol, keyingi yetti yilda ta’limni rivojlantirishga jami 216 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan 19,5 trillion so‘m sarflangan. Natijada 6 mingta davlat maktabi va 3 ming 500 ta bog‘cha rekonstruksiya qilindi hamda yangidan qurildi.

Bu o‘zgarishlarga hamohang tarzda xususiy ta’lim tizimiga ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Buni keyingi yetti-sakkiz yilda xususiy maktablar soni 27 tadan 500 taga yetganida ham ko‘rish mumkin.

Mavzuni umumiylikdan chekinib, bir ta’lim dargohi misolida davom ettiramiz.

Barcha qulayliklarga ega aholi yashash manzillariga zamonaviy ziyo maskanlari yarashadi.

Navoiy shahridagi Farovon mahallasi yangi tashkil etildi. Bu manzilda keyingi to‘rt-besh yilda katta bunyodkorlik ishlari olib borildi. Bugun bu yerdagi 50 dan ortiq ko‘p qavatli uylarda 15 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Hududda savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, ijtimoiy soha obyektlari, teatr binosi va mehmonxonalar foydalanishga topshirildi.

Bu yangi obyektlar orasida 22-umumta’lim maktabining besh qavatli binosi alohida ajralib turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida 31-oktabr kuni ushbu ta’lim dargohida ham bo‘ldi.

Bir ming sakkiz yuz nafarga yaqin o‘quvchi ta’lim-tarbiya olayotgan bu muassasa o‘tgan yili yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Barcha sinfxonalar, laboratoriya, kompyuter va xorijiy til xonalari, sport zali, futbol maydoni, oshxonada zamonaviy sharoitlar yaratildi.

Kutubxonada olti mingtaga yaqin badiiy adabiyot jamlanib, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona elektron tizimga ulangan.

Prezident tashrifidan so‘ng o‘quvchilar va maktab pedagogik jamoasi bilan suhbatlashdik.

– Mamlakatimizdagi yangilanishlar, ta’lim tizimiga e’tibor natijasi shu dargohda ham o‘z ifodasini topgan, – deydi maktab direktori Feruza Fayziyeva. – Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim sifatini Prezident va Ixtisoslashtirilgan maktablarga yaqinlashtirgan tarzda amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan edi. Bizda shu jihat inobatga olingan. Maktabimizga 104 nafar o‘qituvchi bilimi va pedagogik mahorati inobatga olingan holda saralab ishga qabul qilingan. Darslar ham ixtisoslashtirilgan maktablar ta’lim dasturi asosida olib borilmoqda. Shuningdek, maktabimiz o‘qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun tayanch maktablardan biri sanaladi. Yurtimizda o‘g‘il-qizlarimizni kamida ikkita chet tili va bitta zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish maktab ta’limidagi muhim yo‘nalishga aylandi. Maktabimizda bunga alohida sharoit yaratilgan. Prezidentimiz bu qulayliklar bilan tanishdi, o‘quvchilar bilan dildan suhbatlashdi. O‘ylaymanki, bu muloqot ularning hayot yo‘lida katta marralarga yetishida alohida motivatsiya bo‘ladi.

Odatda, katta binolarning yerto‘lasi suv toshgan qorong‘i joy bo‘ladi. Maktabning shu qismi mukammal ta’mirlanib, zamonaviy jihozlandi. Bu yerda amaliy bezak san’ati, mehmonxona xizmati, rassomchilik, suratkashlik, IT yo‘nalishi, robototexnika kabi o‘ndan ortiq kasb-hunarlarni o‘rgatishga moslashtirildi.

Yoshlarga buyuk sarkarda va jahongir bobolarning vatanparvarligi, jasorati katta ibrat sanaladi. Shu jihat inobatga olingan holda maktabda Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda “Vatan tayanchi” harbiy vatanparvarlik guruhi tashkil etildi. Unda mashg‘ulotlar alohida dastur bo‘yicha o‘qitiladi. Guruhda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqalari tez-tez o‘tkaziladi.

O‘quvchilar “Iqtidor” klubida esa musiqa, teatr va san’at yo‘nalishida turli mashg‘ulotlarda ishtirok etadi.

Ta’lim dargohida “xavfsiz maktab” tizimi ishlaydi. Buning uchun muassasaga kirish-chiqishda “Face ID” dasturi o‘rnatilgan. U davomatni umumiy, sinflar hamda har bir o‘quvchi kesimida olib boradi.

Maktabning infratuzilma tarmoqlari markaziy tizimga ulangan, qo‘shimcha 5,5 kVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatilgan.

Darvoqe, tashrif doirasida Prezident viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazgan edi.

Unda Navoiy viloyatining chekka hududlaridagi 18 ta eski maktabni va ichimlik suvi tarmoqlarini yangilash, bog‘cha va maktablar qurish vazifalari belgilandi. Islohotlar izchilligi ko‘ngillarni shod qiladi.

Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbiri

BOSH QOMUSIMIZ –

O‘zbekiston milliy taraqqiyotining hozirgi bosqichida insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, kuchli fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdek bosh strategik maqsad sari demokratik yangilanishlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish borasida tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.



ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Biz mustaqil taraqqiyot yo‘lida qanday yutuqlarga erishayotgan bo‘lsak, Prezidentimizning dono siyosati, xalqimizning buyuk kuchi, aql-idroki bilan erishilmoqda. Qolaversa, Konstitutsiya bergan imkoniyatlar, huquq va erkinliklar, qulay sharoitlar bunga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotimiz ko‘zgusi. Unda xalqimizning irodasi, ruhiyati, dunyoqarashi, tafakkuri, madaniyati, ma’naviyati, ijtimoiy-siyosiy ongi o‘zining mukammal ifodasini topgan.

2023-yilning 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Aytish joizki, Konstitutsiyamizda ilgari qonunchilikda mavjud bo‘lmagan bir qator muhim qoidalar mustahkamlandi va ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra, “Inson – jamiyat – davlat” tamoyilini konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashga qaratilgan.

Zero Bosh qonunimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari kafolatlari bilan bog‘liq ko‘plab normalar o‘z aksini topganki, bu mamlakatimizning chinakam demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Binobarin, Konstitutsiyamizning 13-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Shuningdek, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Asosiy qonunning 19-moddasida, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilgan.

Shu jumladan, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur qoida O‘zbekistonni demokratik mamlakatlar qatoriga ko‘taradi hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi to‘g‘risidagi qoida xalqaro huquq normalariga to‘la mos keladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 23-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilishi va ularga homiylik ko‘rsatishi, 24-moddasida esa respublika hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanishi kafolatlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy normativ huquqiy manba sifatida mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashning asosiy masalalari bo‘yicha ham muhim ustuvor prinsiplar va normalarni belgilab beradi.

Jumladan, Asosiy qonunning 152-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi, 153-moddada esa O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga egaligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur normalar mamlakatimiz tinchliksevar siyosatining yaqqol belgisi bo‘lib, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, hududiy yaxlitligini, chegaralarimizning daxlsizligini, fuqarolarimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlash uchun tashkil etilgan.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri jamiyat a’zolarining qonun oldidagi tengligi, Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta’minlanganidir.

Konstitutsiya va qonunlar ustunligining mohiyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida belgilab berilgan.

Asosiy qonunimizning 15-moddasiga muvofiq, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi, shuningdek davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq, ish yuritishi belgilab qo‘yilgan.

Shuni alohida aytib o‘tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.

Mamlakatimizda Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlash, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklatilgan. Konstitutsiyaviy sud mazkur vakolatni amalga oshirish orqali demokratik huquqiy davlatning muhim sharti hisoblangan qonun ustuvorligini ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari ustuvorligini ta’minlash, ko‘p jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi zimmasiga yuklangan, desak, xato bo‘lmaydi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov zamonaviy demokratik davlatning alohida talabi, zaruriy instituti bo‘lib, Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlash hamda mamlakatimizda qonuniylik muhiti, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishning ishonchli garovidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud o‘zining vakolatlari doirasida quyidagi masalalarni ko‘rib chiqadi:

● qonunlarning va Oliy Majlis palatalari qarorlarining, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi;

● Prezident tomonidan imzolanguniga qadar – konstitutsiyaviy qonunlarning, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunlar Prezident tomonidan imzolanguniga qadar – xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi;

● referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

● Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

● Konstitutsiya va qonunlar normalariga sharh beradi;

● Oliy sudning muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi;

● konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalariga va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Shu jumladan, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddada fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilab berilgan.

Mazkur norma Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilangan har kim o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi yanada kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, aytib o‘tish joizki, quyidagi subyektlar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega: Oliy Majlis palatalari, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili *(ombudsman)*, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili *(Bolalar ombudsmani)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rtdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, Senat a’zolari umumiy sonining kamida to‘rtdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi, Oliy sud, Bosh prokuror, Hisob palatasi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi, Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, shaxs huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o‘tgan davr mobaynida barcha sohalarda qanday natija va yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsak, ularning barchasi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan qoidalar bilan uzviy bog‘liqdir.

U. G‘IYOSOV,
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining katta eksperti







Dunyoda va mintaqada ro‘y berayotgan nizoli vaziyatlar manzarasi har qanday mamlakatda yoshlar tarbiyasi kechiktirib bo‘lmas muhim masala ekanini aniq-tiniq namoyon qilmoqda. “Troya oti” kabi yoshlar ongi va shuuriga to‘g‘ridan to‘g‘ri joylashib olayotgan salbiy elementlar bora-bora miyamizda portlashi, bu esa yurt tarixi, milliy qadriyatlariga jiddiy zarar yetkazishi har qanday sog‘lom fikrlovchi millat kishisini tashvishga solishi zarur.

BUGUNGI VATAN TAYANCHLARI –

Yoshlar tarbiyasi faqat davlatnigina emas, jamiyatning, oilaning barchamizning zimmamizda qolayotgan mas’uliyatdir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Amir Temurning “Tuzuklari”, Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Mirzo Boburning “Boburnoma” va boshqa ko‘plab nodir asarlarda chin farzand, Vatan himoyachisi, oila davomchisi, sha’n va sharaf himoyachisi qanday sifatlarga ega bo‘lishi haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladiki, bu bizga farzand tarbiyasidagi nozik chegaralarni eslatib turadi.

“Vatan tayanchi” harakati ham ana shunday muhim zarurat va mezonlar asosida maydonga chiqdi. Ushbu harakat har qanday sharoit va vaziyatda ham jamiyatning eng sadoqatli va faol, sinov va qiyinchiliklarni yengib, o‘z hayotiy maqsadlari tomon ildam harakatlanadigan, Vatan manfaatini qadrlaydigan va himoya qiladigan o‘smirlarni shakllantirish o‘laroq o‘z faoliyatini boshladi.

“Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari polkovnik Bahrom Zulfiqorov bilan kechgan suhbatimiz harakatning mazmun-mohiyati, faoliyati, xalqaro yutuqlari xususida bordi.

– Yurtboshimizning 2022-yil 2-martdagi Mudofaa vazirligi huzuridagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorni imzolashi jamoatchilik tomonidan katta hodisa sifatida baholandi. Nomidan ham ma’lumki, “Vatan tayanchi” otryadlari 10–11-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda, yoshlarning eng shijoatli va jo‘shqin davrlari bilan harakatga kirishadi. Buning mohiyatida qanday chuqur o‘ylangan maqsadlar bor?

– Darhaqiqat, “Vatan tayanchi” harakatiga o‘smirlar eng shijoatli va jo‘shqin pallalarda a’zo bo‘lishadi. Bu davrda ularda atrofdagi har qanday hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, barchani o‘ziga jalb qilish ishtiyoqlari yuqori bo‘ladi. Bu yoshda o‘smirlar uncha-muncha xavf-xatardan hayiqmaydi, olqish va maqtovlar olgisi keladi.

Buning ham chin va yolg‘oni bor. Aksariyat yoshlarning virtual makondagi olqishlarga moyilligi kuchayib, turli chellenj va vaynlar orqali “layk”lar yig‘ishga berilib qolayotgani ham ayni haqiqat. Ammo o‘z bilimi, kuchi va qat’iy intizomi bilan ulkan cho‘qqilar sari borayotgan o‘g‘il-qizlar ham borki, ofarin deb yuborasan. “Vatan tayanchi”ni muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan tashkil etilgan, katta maqsad va tashabbuslar bilan yo‘lga otlangan yoshlar jamoasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Eslatma: *“Vatan tayanchi” harakati a’zosi O‘zbekiston Respublikasining barcha qonunlarini, uning ramzlarini hurmat qiladi va ularga to‘liq rioya qiladi. Jamiyatda va tengdoshlari orasida buni targ‘ib qiladi hamda shaxsan namuna ko‘rsatadi. Davlat qonunlariga va ramzlariga behurmatlik qiladigan har qanday shaxsni bundan qaytaradi, unga o‘z munosabatini bildiradi. Zarur hollarda o‘z otryad rahbari yordami bilan bunday holatlarning oldini oladi”.*

...Avvalo, jahon tajribasi o‘rganildi. Tarixda va bugungi kunda faoliyat yuritayotgan harbiy-vatanparvarlik harakatlari, harbiy-vatanparvarlik klublari faoliyati, dunyo hamda respublikamizdagi yoshlar bilan bog‘liq ijtimoiy muhit, muammo va ehtiyojlar tahlil qilindi. Ko‘pgina dolzarb savollar o‘rtaga qo‘yildi: Yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘ulari qay darajada? Ularni ko‘proq nima qiziqtiradi? Qanday qilib harbiy sohaga bo‘lgan e’tiborni yanada oshirish mumkin? Bu harakatdan Vatan, Prezident, xalq nimalarni kutyapti?

Bu savollar ortidan yana ko‘plab savollar tug‘ilaverdi. Oldimizda qanday qilib yoshlarimizni ushbu harakatga chorlash, a’zo bo‘lish istagini uyg‘otish va bu harakat yurak amri va tabiiy ehtiyoj samarasi o‘laroq yuzaga chiqishi zarurati turar edi. Shuning uchun ham qarorda “Vatan tayanchi” harakatining asosiy vazifalari aniq ko‘rsatilib, harakatga a’zo bo‘lish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Birinchi navbatda Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy okruglardagi mutaxassislar va harakatning vasiylik kengashi vakillari bilan targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.

Harakatning asosiy maqsadi va vazifalari, “Vatan tayanchi” otryadlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, otryad a’zolarining vazifalari, ularga beriladigan imtiyozlar keng targ‘ib qilindi. “Vatan tayanchi” harakati a’zolari tanlangan, qobiliyatli, mustaqil fikrga ega, tengdoshlarini boshqara oladigan va birlashtira oladigan o‘smirlar ekanligi tushuntirildi. Harakat a’zosi, eng avvalo, sharaf uchun, obro‘ uchun harakat qilishi chuqur anglatildi.

MANFAATSIZ VA XOLIS

Iqtibos: *“Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” degan naql bor xalqimizda. Harakat a’zolari har qanday topshiriqni jamoa bo‘lib bajaradilar. “Vatan tayanchi” harakati a’zosi shaxsiy manfaatidan ko‘ra Vatan manfaatini yuqori qo‘yadi. Boshqalarga ko‘maklashish, ularning minnatdorligi va roziligi orqali qoniqish hosil qiladi. Tengdoshlarining muvaffaqiyatlaridan quvonadi, qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘makka muhtoj shaxslarga, tengdoshlariga bor imkoniyati bilan yordam beradi. Bu orqali qadr-qimmatini oshiradi, xalqning hurmatiga sazovor bo‘ladi.*

– Jamoalar muhitida har qanday yordamni moddiy manfaatlarsiz xolis bajarish, xalqning duosini olish kabi kishiga ruhiy ozuqa beradigan fazilatlar yuqori sur’atlarda shakllanib bormoqda. Chunki bir insonning roziligi va tashakkuriga sazovor bo‘lib rohatlangan o‘smir bu ehtiyojini yanada kengroq qondirishga harakat qiladi. Kelajakda xalq hurmati va olqishiga sazovor bo‘lishga bel bog‘laydi.

Bu borada boshlang‘ich tajriba va sinovlardan ham o‘tib bormoqdamiz. O‘tgan davrda otryad a’zolari tomonidan bir qator ko‘ngilli tashabbuslar amalga oshirildi. Xotira va qadrlash kuni arafasida birodarlik qabristonlari, xotira maydonlari obodonlashtirilishiga ko‘maklashildi, “Yashil makon” doirasida maktablar va mahallalarda ko‘plab ko‘chatlar, gullar o‘tqazildi. Bu albatta, harakat a’zolarining jamoaviy tashabbuslari bilan olib borildi. Mehnati singgan, peshona teri to‘kilgan, o‘z qo‘li bilan obod etilayotgan joylar o‘smirlar tomonidan nazoratga olinayotgani, vayron bo‘lishga yo‘l qo‘yilmayotgani – bu juda ham yaxshi mujda. Bora-bora bunday yoshlar o‘z yeriga ham befarq bo‘lmaydi, Vatanning chin himoyachisiga aylanadi.

– Siz tashkilot rahbari sifatida “Vatan tayanchi” otryadini mamlakatimiz hayotida egallab borayotgan o‘rnini qanday baholaysiz?







ERTANGI YURT USTUNLARI

– Ayrim xalqlar o‘zligi, milliyligi, urf-odatlari va qadriyatlarini yo‘qotib, aralash madaniyatlar botqog‘iga botib bormoqda. Ayrim kuchlar tomonidan jamiyatni izdan chiqarish uchun psixologik operatsiyalar o‘tkazilishi sir emas.

Bunday sharoitda “Vatan tayanchi” harakati orqali yoshlar o‘rtasidagi fidoyi, vatanparvar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz bilan ma’naviy qurollangan jamoalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatyapmiz, ommani boshqarish uchun turli psixotrop moddalar, kiberta’sirlar rivojlanib bormoqda. Otryad a’zolari bilan maqsadli va to‘g‘ri ishlarni olib borish orqali bunday salbiy holatlarning oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish imkoniyati yaraladi.

Iqtibos: *“Vatan tayanchi” harakati – bu saralanganlar harakati. Saralangan deganda ularning oila a’zolarining moddiy holati, e’tiqodi va jamiyatda tushuniladigan boshqa holatlar emas. Bular tengdoshlar orasida yaxshilar ichida eng yaxshilaridir. Har qanday o‘smir harakat a’zosi bo‘la olmaydi. Chunki nomzod o‘zining harakati, bilimi, tafakkuri, jismoniy tayyorgarligi va boshqa qobiliyatlari bilan tengdoshlari ichidan eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim”.*

Shunday bo‘lsa-da, hozirgi kunda ayrim ta’sirlar ostiga tushib qolgan, maqsadsiz, yetarli darajada bilim va hunarga ega bo‘lmagan yoshlar ham jamiyatimiz a’zosi hisoblanadi. Bunday yoshlar biror nojo‘ya qilmish sodir qilmagan bo‘lishi mumkin, lekin ularni jamiyatimizdan ajratib qo‘ya olmaymiz. Agar biz “Vatan tayanchi” harakati orqali yuksak maqsadli va bilimli yoshlar qamrovini oshirsak, bunday yoshlar o‘z tengdoshlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlay oladi. Oyna bo‘ladi. Eng muhimi, ular bir-birlarini nazorat qiladi.

– “Vatan tayanchi” otryadlari qanday ulkan maqsadlar bilan yo‘lga chiqqan? Bugungi natijalar haqida suhbatlashsak.

– “Vatan tayanchi” harakatining maqsadlari juda katta. Kelajakda harakatga a’zo bo‘lish har bir o‘smirning orzusi bo‘lishiga erishishimiz zarur. O‘zbekistonda unib-o‘sayotgan har bir o‘g‘il-qiz “Vatan tayanchi” harakati a’zosi bo‘lishi kerak.

Harakat tashkil etilgandan buyon ko‘plab ijobiy natijalarga erisha oldik. Jamoa a’zolari ichidan sportchilar, bilimdon kitobxonlar, dasturchilar mavjudligi bizni quvontiradi.

2023-yilda ilk bor “Vatan tayanchi” jamoasi Qozog‘iston Respublikasining Qarag‘anda viloyatida o‘tkazilgan “Aybin–2023” xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig‘ini doirasidagi harbiy sport musobaqalarida ishtirok etib, 42 ta jamoa o‘rtasida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

2024-yil iyun oyida Qozog‘istonning Almati viloyatida o‘tkazilgan musobaqa ham munozaralarga boy o‘tib, unda jami 52 ta jamoa ishtirok etdi. Vakillarimiz turnikda tortilish, pnevmatik miltiqdan otish, avtomatni noto‘liq yoyib-yig‘ish, robototexnika kabi yo‘nalishlarda yakka tartibdagi rekord natijalarni qayd etishga muvaffaq bo‘ldilar. Musobaqalar yakuni bo‘yicha jamoamiz mezbonlardan keyin faxrli 2-o‘ringa munosib ko‘rildi.

“Vatan tayanchi” hali endigina shakllanish bosqichidagi yosh harakat bo‘lishiga qaramay, mintaqamizdagi ko‘plab davlatlar e’tiboriga tushishga ulgurdi. Xususan, Qozog‘istondagi yig‘in davomida Rossiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston davlatlari vakillari jamoamiz faoliyatiga katta qiziqish bildirishdi.

Bu hali boshlanishi. Kelajakda o‘smirlar o‘rtasidagi boshqa tanlov va musobaqalarda ham “Vatan tayanchi” jamoasi ishtirokini ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar olib bormoqdamiz.

– Shaxsan o‘zim “Vatan tayanchi” otryadi jamoalarining qator musobaqalardagi ishtirokini yaqindan kuzatdim. Meni hayron qoldirgan bir jihat jamoaviy muhit juda ahil, o‘g‘il-qizlar jamoa sha’ni, o‘rni uchun hech narsadan qaytmaydi. Bunday jipslik, albatta har sohada bizga kerak deb o‘ylayman...

– Albatta, jamoani shakllantirish, bor kuch va g‘ayratni bir maqsad sari yo‘naltirish otryad rahbarlari va murabbiylaridan katta mehnat talab qiladi.

Harakat a’zolari qoni qaynoq o‘smirlar – birdaniga ehtirosga berilib ketishadi. Ularda o‘zaro ishonch, hurmat va jipslikni shakllantirish, mushkul vaziyatda yelkadoshlik, omad kelmaganda, tirgak bo‘lish ko‘nikmasini oshirib borishimiz zarur.

Xabaringiz bor, har yili “Vatan tayanchi” otryadlari o‘rtasida “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqasi uch bosqichda, tuman, viloyat va Mudofaa vaziri kubogi uchun respublika bosqichlari o‘tkazib kelinadi. Musobaqalarda 9 mingdan ortiq jamoa ishtirok etadi. Har bir bosqichdan g‘olib bo‘lgan 14 ta jamoa Mudofaa vaziri kubogi uchun o‘zaro bellashadi. Siz ta’kidlab o‘tgan jamoaviy kayfiyat, shijoat, birdamlik mana shu musobaqalarda yaqqol mustahkamlanadi.

– Bir vaqtlar jadid bobolarimiz ham ilmli va serg‘ayrat yoshlarni o‘qitib, millat ma’naviyati uchun bel bog‘lagan edilar. “Vatan tayanchi” otryadi Yo‘l xaritasida ham bunga alohida urg‘u berilgan...

– “Vatan tayanchi” harakati eng shijoatli, tashabbuskor, tengdoshlari o‘rtasida hurmatga ega, ortidan do‘stlarini ergashtira oladigan, vatanparvar, mustaqil fikrli, sadoqatli yoshlar jamoasi.

Harakat a’zolari bajara olmaydigan vazifaning o‘zi yo‘q. Chunki uning tarkibida turlicha qobiliyatlar, iste’dodlar bor.

Iqtibos: *“O‘qish – harakat a’zosining asosiy mashg‘uloti hisoblanadi va bu ertadan kechgacha partada o‘tirib o‘qish degani emas. Biror mavzuni ko‘r-ko‘rona yodlab olish yoki undan talab qilinayotganligi uchun o‘qish yaramaydi. Harakat a’zosi eng avvalo, har qanday fanning hayotda kerakligini, uning asl mohiyatini o‘rganadi. Har bir fanni o‘z kelajagi uchun muhim jihatlarini chuqurroq o‘zlashtirib boradi”.*

Albatta, bunday sa’y-harakatlarning imtiyozlari ham bor. Kuni kecha muhtaram Prezidentimiz “Vatan tayanchi” harakati faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha yana bir muhim qarorni imzoladilar. Unga ko‘ra, otryadlarning bir nafar eng a’lochi va faol a’zosi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy va harbiylashtirilgan bilim yurtlariga o‘qishga kirish uchun o‘zi to‘plagan balining 5 foizi miqdorida qo‘shimcha imtiyozli tavsiyanomaga ega bo‘ladi. Bu degani, har yili o‘n minglab yoshlar orasidan eng kuchlilari maydonga chiqadi, saralanadi, Vatan himoyachisi bo‘ladi. Eng muhimi, kelajakda milliy armiyamiz saflarida qalbi pok, g‘ururi mustahkam, Vataniga sadoqatli o‘g‘il-qizlar soni ortib boradi.

Kapitan Bobur ELMURODOV suhbatlashdi.








IKKI SHARAFLI

Har yili noyabr oyining ikkinchi yakshanbasida mamlakatimizda tibbiyotchilar kuni keng nishonlanadi. Joriy yil ham bu sanani tibbiyot xodimlari katta tadorik va yangiliklar bilan qarshi olmoqda. Xususan, Mudofaa vazirligi qo‘shinlari va tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan soha mutaxassislari shifokorlik ham harbiylik kasbini birdek tutib, salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.







Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash uchun harbiy tibbiyot muassasalarining infrastrukturasini, moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish, shaxsiy tarkib sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, bemorlar va jarohat olganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni davolash va davolashdan keyingi sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish borasida ko‘plab o‘zgarishlar joriy etildi. Harbiy gospitallar, harbiy qism tibbiyot punktlari qayta ta’mirlandi, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasida hal etilmoqda. 2020-yil tashkil etilgan akademiyada tibbiyot xizmati shaxsiy tarkibining malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, oliy harbiy tibbiyot ta’lim maskanida real voqelikka yaqinlashtirilgan jang maydoni effektlarini beruvchi taktik tibbiyot o‘quv xonasi, kompyuterlashtirilgan o‘quv qurollari bilan jihozlangan auditoriyalar, gospitalda amalga oshiriladigan jarrohlik amaliyotlarini real vaqt rejimida videokuzatish imkonini beruvchi amaliyot xonalari, zarur vositalar bilan ta’minlangan maxsus xonalar hamda 250 dan ortiq o‘rinli anjumanlar zali bo‘lg‘usi harbiy shifokorlar, tibbiyot xodimlari xizmatida.

Mudofaa vazirligi harbiy tibbiyoti faoliyatiga eng ilg‘or texnologiyalar va tajribalarni joriy etish maqsadida bir necha xorij mamlakatlari bilan hamkorliklar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, harbiy shifokor va tibbiyot mutaxassislari xorijda harbiy tibbiyot yutuqlarini o‘rganib, o‘zaro fikr almashib, malaka oshirib qaytmoqda.

Harbiy qism va muassasalar shaxsiy tarkibi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish borasida vazirlikning Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi hamda harbiy gospitallar sanitariya-epidemiologiya bo‘linmalari mutaxassislari tomonidan doimiy nazorat va boshqa qator tadbirlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab kasallik o‘choqlarini yo‘q qilishda profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Mudofaa vazirligining deyarli barcha tibbiyot xodimlari koronavirus epidemiyasiga qarshi kurashish ishlarida faol qatnashganligi hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolaridan tashqari yuzlab fuqarolarga ham statsionar va ambulator tibbiy yordam ko‘rsatgani soha egalarining jamiyatimizda muhim o‘rni borligidan dalolatdir.

Mudofaa vazirligining Samarqand, Qarshi, Termiz, Farg‘ona, Nukus hamda Markaziy harbiy klinik gospitallari, harbiy qism va muassasalarning tibbiyot bo‘limlarida harbiy xizmatchilarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Joriy yilda Termiz harbiy gospitali infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi takomillashtirildi. Davolash-diagnostika bo‘limlari eng so‘nggi rusumdagi tibbiy asbob-uskunalar, mobil tibbiy komplekslar bilan ta’minlandi, ish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari, yuqori texnologik davolash va tashxis qo‘yish, tibbiy reabilitatsiya usullari joriy etildi.

– Harbiy tibbiy muassasamiz butunlay yangi qiyofada faoliyatini davom ettirmoqda, – deydi Termiz harbiy gospitali boshlig‘i tibbiy xizmat podpolkovnigi Oybek Ashurov. – Vazifalarimizning ham ko‘lami kengaydi. Bular gospital kundalik ish faoliyatida yagona tibbiy axborot tizimini takomillashtirib borish, yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish, harbiy tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, Sog‘liqni saqlash vazirligi va xorijiy davlatlar mutaxassislarini jalb etgan holda murakkab va kam invaziv jarrohlik amaliyotlari hamda davolash diagnostika ishlarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining 5-6-bosqich talabalarini amaliyot o‘tashga jalb qilishdir.

Ayni paytda 200 o‘rinli davolash sig‘imiga ega gospitalning 14 ta davolash va diagnostika bo‘limida 32 nafar shifokor, 110 nafar o‘rta va kichik tibbiyot xodimlari faoliyat olib bormoqda. Ularning 10 nafari xorijda malaka oshirib qaytgan.

Harbiy xizmatchilar, harbiy pensionerlar va ularning oila a’zolari hamda Surxondaryo viloyati aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan gospitalimizning tibbiyot mutaxassislari yangicha jarrohlik amaliyotlarini







KASB EGALARI







o‘tkazishlari uchun 5 ta operatsiya zali kecha-yu kunduz tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Real jang maydoni effektini beruvchi maxsus o‘quv xonasida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda harbiy mojarolar vaqtida harakatlanish, jarohatlangan harbiy xizmatchilarga tez va aniq tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari egallanadi.

Gospitalda mustaqil kislorod ishlab chiqarish stansiyasi barpo etildi. Jarrohlik amaliyotlarini telemeditsina orqali kuzatish va maslahat beruvchi amaliyot xonalarining tashkil etilgani tashxis qo‘yish – davolashning yangi usullarini o‘zlashtirish hamda qo‘llash orqali bemorlarning qisqa muddatlarda shifo topib, oyoqqa turishida muhim o‘rin tutmoqda.

– Men gospitalning jarrohlik bo‘limida xizmat qilaman, – deydi Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi bitiruvchisi, katta ordinator, tibbiy xizmat katta leytenanti Ma’murjon Jalilov. – Jamoamiz o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mutaxassislardan iborat. Gospitalimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlardan keyin hozirgi kunda yangi eng zamonaviy uskunalar, tibbiy jihozlarni qo‘llagan holda ishlayapmiz. Tibbiy muassasamizdagi o‘zgarishlar doirasida laparoskopik jarrohlik amaliyotlari yo‘lga qo‘yildi. Laparoskopiya bu qorin bo‘shlig‘i a’zolarining jarrohlik amaliyoti va ko‘rigi usuli bo‘lib, bunda katta joyni kesishga hojat bo‘lmaydi. Jarroh tana a’zolarini teleskopni eslatuvchi ingichka asbob – laparoskop yordamida ko‘radi va monitorga qarab, jarrohlik amaliyotini o‘tkazadi. Terining kesilgan joyi bor-yo‘g‘i 1 santimetrni tashkil qiladi.

Yaqinda ko‘plab afzalliklarga ega ushbu yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o‘zimizda Markaziy harbiy klinik gospital bosh mutaxassisi, abdominal jarrohlik bo‘limi boshlig‘i, tibbiy xizmat polkovnigi ko‘p yillik tajribaga ega ustozimiz Tolibjon Siddiqov hamda bo‘lim boshlig‘i, tibbiy xizmat podpolkovnigi Abulboqi Yakubov tomonidan birinchi marta muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

So‘zim yakunida menga saboq bergan barcha ustozlarimni, hamkasblarimni tibbiyotchilar kuni bilan samimiy qutlayman. Ularning oilalariga farovonlik, baxt-saodat, mustahkam sog‘lik tilayman!

Furqat ERGASHEV









HARBIYCHA IDEALLIK TAJRIBASI

Har bir inson jamiyatda kimdandir o‘rnak olishga, kimgadir o‘xshashga yoki o‘zi boshqalarga namuna bo‘lishga harakat qiladi. Chunki bunday insonlar zamonasining ideallari hisoblanadi va ularda eng muhim jihat – yetakchilik qobiliyati shakllangan bo‘ladi. Shuning uchun sportda, biznesda, tibbiyotda, ilm-fan va ta’lim-tarbiya, arxitektura, IT, texnika hamda ishlab chiqarish sohalarida yoshlarga o‘rnak bo‘layotgan ideal hamyurtlarimiz haqida gap ketganda, birinchi navbatda, ko‘z oldimizda ularning yutuqlari gavdalanadi.





Bugungi kunda o‘sib kelayotgan avlod hayotda o‘rnini topish uchun yoshligidan turmush tarzini o‘z idealidagi insonga xos muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Bolaning esini tanigandan boshlab kattalarga yoki o‘z xayolidagi qahramonlarga taqlid qilishi, ularning kasbiga qiziqishi bu jarayonning boshlanishi hisoblanadi. Bunda kattalar bolaga yon-atrofdagi muhitni to‘g‘ri talqin qilishi uchun sharoit yaratib berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina oilalarda o‘sib kelayotgan jajji o‘g‘il-qizlarning o‘y-fikrlari, intilishlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘g‘il bolalarda asosan harbiylikka, uchuvchilikka yoki haydovchilikka, qizlarda esa o‘qituvchilik va shifokorlikka qiziqish kuzatiladi. Ayrim hollarda sanab o‘tilgan kasblarga havas o‘g‘il bolalarda ham, qizlarda ham uchrab turadi. Ulg‘ayib borgan sari o‘g‘il-qizlarning bolalik havasi kelajakdagi maqsadga, reallikka aylanib boraveradi.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha hududlarida yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etilgan bo‘lib, millionlab yoshlar tashkilotlar, muassasalar, hokimliklar, harbiy qismlar tomonidan otaliqqa olingan.

Mahallalarda, bog‘chalarda, umumta’lim maktablarida, oliy ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik harakatlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2022-yilda qabul qilingan“Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-sonli qarori bu jarayonning yanada keng quloch yoyishiga zamin yaratib berdi. Misol uchun, poytaxtimizning Sergeli tumanida faoliyat olib borayotgan “Jasorat” vatanparvarlik to‘garagi mingdan ortiq 4 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlarni o‘zida jamlagandi. Endilikda to‘garak safida 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar yanada ko‘paydi. Bunday vatanparvarlik to‘garaklari, yoshlar harakatlari butun mamlakat bo‘ylab keng qamrovda ish olib bormoqda. “Jajji yulduzchalar”, “Shunqorlar”, “Vatanparvarlar”, “Matonat”, “Yosh desantchilar”, “Chegarachilar”, “Yosh posbonlar” kabi yuzlab, minglab turli yoshdagi guruhlar tashkil etildi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston istiqbolini ta’minlab berishga xizmat qiladigan mexanizm ishga tushirildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Men ham Vatan himoyachisiman” ko‘rik-tanlovining o‘tkazilishi, umumta’lim maktablarida “Vatan tayanchi” dasturining faoliyat yuritayotganligi, 30 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida “Jasorat maktabi” loyihasi ishga tushirilishi, “Shunqorlar” musobaqasining tashkillashtirilishi orqali harbiy qismlarda faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilariga yana bir mas’uliyatli vazifa yuklatildi. Ular tomonidan yoshlar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy hamda huquq-tartibot, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy sport yo‘nalishi, ijtimoiy-iqtisodiy, “Ustoz-shogird an’anasi” yo‘nalishlarida tadbirlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayon yakka tartibda ham, guruh tartibida ham amalga oshirilayotgani ahamiyatga molik.

Yuqorida kattalar bolaga yon-atrofdagi muhitni to‘g‘ri talqin qilishi uchun sharoit yaratib berishi muhim ahamiyat kasb etishi haqida to‘xtalib o‘tgandik. Yaratib beriladigan muhit, shu bilan birga yoshlar yetakchilaridagi tashabbuskorlik fazilati yoshlarni turli salbiy ta’sirlardan himoya eta olishda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun bu ishga ma’nan yetuk dunyoqarashga ega, o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal egallagan ofitserlarning biriktirilganligi ko‘zlangan maqsad samaradorligini yanada oshiradi. “Jasorat maktabi” loyihasi doirasida o‘tkazilgan yig‘inlarda o‘nlab, yuzlab tarbiyasi og‘ir yoshlarning yomon yo‘llardan qaytarilishida ana shunday ofitserlar o‘z hissasini qo‘shib kelyapti.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, harbiy qismlarda faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilari bog‘chalarda, umumta’lim maktablarida, oliy ta’lim muassasalarida keng qamrovli va samarali tadbirlarni tashkil etib kelmoqda. Zotan, Mudofaa vazirligi miqyosida “Eng ilg‘or boshlang‘ich tashkilot yetakchisi” ko‘rik-tanlovining o‘tkazib kelinayotgani yoshlar yetakchilarining yangi loyihalar ustida izlanish olib borishiga zamin yaratmoqda. Bu borada mayor Nuriddin Odilov *(Markaziy harbiy okrug)*, kapitanlar Qodirbek Imomov *(Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug)*, Hasanboy Abdumannobov *(Toshkent garnizoni)*, kabi ofitserlar o‘z ish uslubiga ega mutaxassislar sifatida safdoshlariga o‘rnak bo‘lib ulgurdi. Biz gazetaning kelgusi sonidan boshlab gazetxonlarni bu mutaxassislarning ish faoliyati bilan yaqindan tanishtirib boramiz. Chunki harbiycha ideallik tajribasi jamiyatimizdagi boshqa soha vakillarini ham bu ezgu ish atrofiga birlashtirayotgani bilan qimmatlidir.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Sheryurak yigitlar

ONTIGA SOBIT O‘G‘LONLAR

Ona yurtiga, aziz eliga, muqaddas tuprog‘iga mehrli inson borki, bu ulug‘ ne’matlarni jonida asrashni istaydi. Chunki inson uchun Vatandan ortiq aziz dargoh, olmos qo‘rg‘on yo‘q. U ona kabi farzandlarini beminnat bag‘rida asraydi, ulg‘aytiradi. Vatan sarhadidan chetga qadam qo‘ydingizmi, o‘zga yurtga begonasiz, istaysizmi-yo‘qmi, migrant – muhojir degan nomga ega bo‘lasiz. Ha, Vatan tengsiz dargoh, uni asrash esa sharafli va oliy burchdir. Muddatli harbiy xizmatga yo‘l olayotgan yigit borki, ulug‘ vazifaga safarbar etilganini his qilishi zarur. Ilkidagi burchni chin yurakdan ado etishi shart. Zero o‘g‘lonlarimizning bu sharafga muyassar bo‘lgani yuksak e’tirofga sazovor ekanidan dalolat.

Kichik serjant Bahromjon USMANOV

“SAFDOSHLARIM YELKADOSH BO‘LDI”



Mayor Bahodir Xoliyarov komandirlik qilayotgan vzvod askarlari davrasidaman. Har birining o‘z aytar so‘zi, orzu-niyati bor. Turli viloyatdan bo‘lgan bu yigitlarni bir maqsad birlashtiradi, ya’ni Vatan tinchligini asrash yo‘lida burchini o‘tash, yurt himoyasiga qodir bo‘lish.

Sir emaski, muddatli harbiy xizmatning ilk ko‘nikmalari yigitlar uchun zahmatli kechadi. Qat’iy rejimga asoslangan harbiy hayot, Vatanga qasamyod qilishdek mas’uliyatli onlarga tayyorgarlik jarayonlari o‘g‘lonlarning irodasini toblaydi. Shu asnoda ularni hayotiga muhrlanib qoladigan faxrli onlarga musharraf etadi. Keling, bu haqiqatni Qoraqalpog‘istonning Nukus tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Po‘latbek Xo‘jambergenovdan eshitamiz:

– Harbiy xizmat sinovlari haqida ko‘p eshitganman, qiziqqanman, ammo ming bor eshitgandan bir bor ko‘rgan yaxshi, deganlaridek, bugun askarlar safida ekanimdan xursandman. To‘g‘ri, askarlik majburiyatiga ilk moslashuv jarayoni men va safdoshlarim uchun biroz qiyin kechdi. Biroq mana shu qiyinchilik haqiqiy posbon bo‘lib toblanishimizga ulkan zamin yaratdi. Ayni sinovli pallada safdosh do‘stlarim oddiy askarlar Janbo‘lat Serikbayev, Doniyor Rahimov menga har tomonlama tayanch bo‘ldi. Saf tayyorgarligi, jangovar va jismoniy tayyorgarliklarni o‘zlashtirishimda o‘z yordamlarini ayamadi, qiyinchiliklarni birga yengib o‘tdik. Bugun komandirlarimiz tomonidan o‘tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni puxta o‘zlashtirishga intilayotgan askarlar safidamiz. Maqsadlarimiz mushtarak, ya’ni xizmat so‘ngida tavsiyanomaga ega bo‘lib, o‘zimiz orzu qilgan oliy o‘quv yurtiga kirish, ota-onamiz ishonchini oqlash.

Darhaqiqat, do‘stlar yordami hayotning har pallasida zarur. Ayniqsa, askarlik davrida. Shu sabab necha yillar o‘tmasin, armiya maktabini o‘tagan yigitlar “quroldosh do‘stim”, deya bir-birlarini unutmaydi, do‘stlik rishtalarini bardavom qilishadi.

Oddiy askar Xo‘jambergenovga to‘xtaladigan bo‘lsak, u bugun qator muvaffaqiyatlarga erishib ulgurgan g‘ayratli posbonlardan. Muddatli harbiy xizmatga qadar Nukus tumanidagi kasb-hunar kollejida tahsil olgan yigit o‘quvchilik davrida sportning basketbol turi bilan shug‘ullangan. Tuman musobaqalarida ishtirok etib, jamoasining g‘alabalariga munosib ulush qo‘shgan.

Shuningdek, rasm chizishga ishtiyoqi baland Po‘latbek, ijodiy tanlovlarda ham 1-2-o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. Xobbisi esa kibersport bilan shug‘ullanish. Orzusi ota-onasi Nukusbay aka va Xanzada opa niyat qilganidek yurt koriga yelka tutadigan ziyoli inson bo‘lish.

“KOMANDIRLARIMDAN MINNATDORMAN!”



– Oddiy askar Abdurahmonov!

– Men!

– Seni ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar a’lochisi ekaningdan xursand bo‘ldim, – vzvod komandiri mayor Xoliyarov qo‘l ostidagi posbonni muvaffaqiyati bilan tabrikladi.

– Rahmat, ishonchingizni oqlashga doim harakat qilaman! – qaddini g‘oz tutib, javob qaytardi posbon.

– Elyor, askarlik burchingni o‘tayotganingga ham sakkiz oydan oshdi, kelajak rejalaring qanday?

– Maqsadim, muddatli harbiy xizmatdan so‘ng posbonlik burchimni kontrakt bo‘yicha davom ettirish.

– Yaxshi, buning uchun zalvarli sinovlar borligini bilasan, shundaymi?

– Xuddi shunday!

Oddiy askar Elyor Abdurahmonov u bilan samimiy suhbatlashib, orzulariga omad tilagan vzvod komandiri ortidan mamnun qiyofada qarab qoldi. Askar uchun bu maqtansa arzigulik holat. Yutuqlarga erishish, bunday e’tirof topishning o‘zi bo‘lmaydi axir. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni puxta o‘zlashtirish, amaliy sinovlarda yetakchi bo‘lish uchun bilim, zakovat, iroda zarur. Intilganga tole yor, deganlaridek, g‘ayrat va intilish omad garovidir.

– Muddatli harbiy xizmatga qadar yigitlarga xos bo‘lgan turli hunarlarni o‘rganishga harakat qilganman, orzularim ko‘p bo‘lgan, – deydi oddiy askar Abdurahmonov suhbat chog‘ida. – Ammo kasb tanlash borasida qat’iy maqsadim yo‘q edi. Armiya maktabi meni nafaqat posbon sifatida tarbiyaladi, balki o‘z oldimga harbiy soha vakili bo‘lishdek maqsad qo‘yishimga zamin yaratdi. Buning uchun xizmatning moslashuv jarayonida harbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda yaqindan yordam bergan III darajali serjant Ahmed Gapparov, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni egallashimizga yetakchilik qilib kelayotgan kapitan Anvar Mamatqulov hamda askarlarning har bir harakatidan xabardor, talabchan va g‘amxo‘r vzvod komandiri mayor Xoliyarovga o‘z minnatdorligimni bildiraman. Ota-onam kelajagimni harbiy soha bilan bog‘lash istagimni qo‘llab-quvvatlashdi, xursand bo‘lishdi. Niyatim, posbonlik burchimni yaxshi o‘tab, maqsad sari dadil intilish.

KENJA O‘G‘ILNING KATTA MAQSADI



– Dada, men sport to‘garagiga qatnashmoqchiman, karateni o‘rganaman, – maktabdan qaytgan Husanjon otasiga umid bilan termildi.

– Ruxsat berasizmi?

– Mening polvon o‘g‘lim karatechi bo‘lmoqchimi? – o‘g‘ilchasining boshini siladi Ziyodulla aka. – Maktabdagi o‘qishlaringni yaxshi o‘zlashtirib, a’lo baholarga o‘qisang, qarshi emasman.

– Albatta, yaxshi o‘qiyman, dadajon!

– Barakalla, o‘g‘lim, chunki boshlang‘ich sinfda yaxshi o‘qigan o‘quvchi katta sinfga o‘tganda ham a’lochi bo‘ladi, katta o‘qishlarga kiradi, tushundingmi?

– Tushundim, dadajon!

– Unda ertaga senga sport kiyimlarini sotib olamiz...

Oiladagi besh farzandning kenjasi bo‘lgan bolakay o‘shanda sakkiz yoshda edi. Bugun esa Husanjon Turonov muddatli harbiy xizmat o‘tayotgan askarlar safidagi a’lochi posbon. Uning kasb tanlash borasidagi orzulari o‘smirlik chog‘ida shakllangan. O‘shanda uylariga kelgan harbiy libosdagi qarindoshlaridan birining istarali jiddiy qiyofasi, kelishgan tik qomati, so‘zamolligi bilan yigitchaning ko‘ksiga yurt osoyishtaligini asrashdek zahmatli sohaga mehr uyg‘otgan. “Bunday mas’uliyatli kasbga ega bo‘lish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak? – Yuragiga cho‘g‘ tushdi yigitchaning”. Husanjon o‘sha kundan boshlab o‘z oldiga maqsad qo‘ydi: yaxshi o‘qish, salomatlikka jiddiy e’tibor, jismoniy chiniqqanlik... Bugun uning askarlar safida ekani o‘z ustida astoydil ishlaganidan dalolat.

Oddiy askar Turonovning vazifasi o‘qchi, ya’ni komendantlik vzvodi o‘qchisi. U vazifasiga jiddiy yondashib, amaliy mashg‘ulotlarda yetakchilikni qo‘ldan bermay kelayotgan posbonlardan. U bilan suhbatlashganimizda “Armiya maktabi sizga nima berdi?” degan savol berdik. Husanjonning javobi qo‘yidagicha bo‘ldi:

– Muddatli harbiy xizmatga kelishdan avval xizmat sinovlariga ruhan va jismonan tayyorgarlik ko‘rdim. Intellektual salohiyatimni oshirishga harakat qildim. Armiya maktabining ilk ko‘nikmalari men uchun og‘ir kechmagan bo‘lsa-da, ota-ona va yaqinlar sog‘inchi biroz qiynadi. Shuningdek, sabr-qanoat va irodamiz toblandi. Har bir mashg‘ulot men uchun qiziqarli, ayniqsa poligondagi o‘q otish mashg‘uloti juda yoqadi. Bo‘sh paytlarimda esa qo‘ljangi sporti bilan shug‘ullanaman. Buning uchun harbiy qismda barcha sharoit yetarli. Maqsadim – barcha safdoshlarim qatori harbiy xizmatni namunali posbonlar safida o‘tab, Ichki ishlar akademiyasiga o‘qishga kirish. Vatanimiz mustaqilligi va osoyishtaligini asrashdek zahmatli va sharafli vazifada faoliyat yuritish.

Farzandlarini ona kabi bag‘rida ulg‘aytirgan Vatan, o‘z navbatida, farzandlar mehriga muhtoj makondir. Uni asrab-avaylash, gullab-yashnatish, dunyoga tanitish, himoya qilish shu zaminda ulg‘aygan har bir inson oldidagi oliy burch. Shunday ekan, yigitlik burchini o‘tayotgan, oldiga yuksak orzular qo‘ygan o‘g‘lonlarga aytar so‘zimiz: maqsad sari qo‘yilgan ezgu qadamingiz mamlakat rivoji, yurt tinchligi, el osoyishtaligi yo‘lida aslo hormasin, yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lsin!

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Men g‘olib!



“ENG ILG‘OR TIBBIY

Chirchiq poligonida Mudofaa vazirligi qo‘shinlari o‘rtasida “Men g‘olib!” shiori ostida armiya o‘yinlari doirasidagi “Eng ilg‘or tibbiy guruh” musobaqasining yakuniy bosqichi bo‘lib o‘tdi.





Tanlovning dastlabki bosqichlarida yuqori natijani qayd etgan jamoalar o‘rtasida kechgan qizg‘in bahslar, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy tibbiy kadrlarning kasbiy mahorati va amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

– Armiyaning qudratini oshirishda qo‘shinlar safida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlarining ham hissasi katta, – deydi polkovnik Bobokalon Halimov. – Shu sababdan ularning harbiy tayyorgarligi, tibbiy salohiyati hamda amaliy ko‘nikmalari hamisha takomillashtirilib boriladi. O‘tkazilayotgan ushbu ko‘rik-tanlov ham harbiy tibbiyot xodimlari, taktik mediklar va haydovchi-sanitarlarni harbiy xizmatchilarga birinchi va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha belgilangan vazifalarni bajarishda o‘zaro uyg‘unlikda harakatlanishini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, tibbiy ta’minot xizmati shaxsiy tarkibi orasida liderlik xislatlari ham rivojlanib bormoqda.

Ko‘rik-tanlov ikki bosqich – “Individual mahorat” va “Jamoa birinchiligi”ni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, haydovchilar o‘rtasida zirhli avtomobillarni haydash bo‘yicha “Eng ilg‘or haydovchi” tanlovi ham o‘tkazildi.

“Individual mahorat” bosqichida jamoalar shtatli qurollardan o‘q otish, majmuaviy *(kompleks)* to‘siqli yo‘laklarni yengib o‘tish







GURUH”LAR BELLASHDI





va maxsus tayyorgarlik yo‘lagida mashq bajarish kabi shartlarda o‘z mahoratlarini namoyish etishdi.

“Jamoa birinchiligi” bosqichi esa shifokorlar tarkibi bilan simulyatsiya jihozlaridan qanday foydalanishni ko‘rsatib berdi, shifokorlik manipulyatsiyalarini bajardi va tibbiy ma’lumotlarni sharhladi. O‘rta tibbiyot xodimlari va taktik mediklar esa o‘quv-taktik maydonda bilimlarini sinovdan o‘tkazdi.

O‘quv-taktik maydonda o‘tkazilgan bellashuvlarning ahamiyati unda ishtirokchilar shikastlangan mashina va jang maydonidan yaradorni tortib chiqarib olish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, shuningdek suvli to‘siqdan kechib, yaradorni olib chiqib, sanitar transport vositasiga yuklash, dala sharoitida yaradorga o‘pkaning sun’iy ventilyatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha mahoratlarini namoyish etdi.

Xuddi shuningdek, ko‘rik-tanlovning “Eng ilg‘or haydovchi” tanlovi ham qizg‘in kechdi. Haydovchilar shtatli quroldan o‘q otish, majmuaviy to‘siqli yo‘laklarni yengib o‘tish mashqini bajarish hamda harbiy texnikani boshqarish kabi shartlar asosida o‘zaro bellashdi.

– Ushbu ko‘rik-tanlov tajribamizni oshirdi, mahoratimizni sayqalladi, – deydi kichik serjant Anvarjon Isayev. – Belgilangan vazifalar real vaziyatda harakatlanish va harbiy to‘qnashuvlar chog‘ida malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni talab etdi. Jarayon davomida o‘z kuchimiz va salohiyatimizni to‘liq namoyon etishga harakat qildik. Bundan tashqari, o‘zaro fikr almashish, ko‘nikmalarimizni oshirishga imkoniyat yaratildi. Yo‘l qo‘ygan ba’zi kamchiliklarimizni bartaraf etamiz, o‘rganganlarimizni kelgusi faoliyatimizda amalga tatbiq etib boramiz.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Toshkent harbiy okrugi jamoasi faxrli 1-o‘rinni, Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi ikkinchi, Markaziy harbiy okrug jamoasi esa uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Ro‘ziqul OCHILOV,
“Vatanparvar”

TURKIY DUNYO

HARBIY QUROLLARI TARIXIY MANBALARDA



9–12-yuz yilliklarda Turonda yuz bergan Birinchi Uyg‘onish chog‘ida boshqa sohalar qatorida harbiy san’at va qurol-yarog‘lar yasash bilimlarida ham o‘sish kuzatildi. Minglab yillardan beri turkiy harb ishining rivojlanib, takomillashib kelishida, o‘z navbatida, aniq va tabiiy fanlardagi yutuqlar, kashfiyotlar salmoqli o‘rin tutgan.



Birinchi Uyg‘onish davrida, ayniqsa matematika, geometriya, mexanika sohalaridagi yuksak o‘sish harbiy qurol-yarog‘lar yasashda o‘z aksini topdi. Aynan shu chog‘da qurol-yarog‘lar yasash va ularni ishlatishga oid arab tilidagi ilk asarlar dunyoga keldi. Bizga ma’lum bo‘lgan bu kitoblar orasida eng birinchisi, Banu Muso deb laqablangan uch aka-uka: Muhammad, Ahmad va Hasanga *(8–9-yuz yilliklar)* tegishlidir. Ular turonlik Muso ibn Shokir otli kishining bolalari bo‘lib, matematika, geometriya, astronomiya, musiqa va mexanikada juda mohir sanalgan. Bu aka-ukalar o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etib, nafaqat Turon, musulmon dunyosi tarixidagi harb ishi va qurol-yarog‘larga oid hozirgacha bizga ma’lum bo‘lgan ilk asarni yozgan. Bu asarda manjaniq singari toshotar va boshqa qurollarni yasash hamda ularni jangda ishlatish to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Afsuski, bu asarning o‘zi hozirgacha topilmagan, lekin uning mazmuni keyingi davrlarda yashagan olimlarning kitoblarida saqlanib qolgan. Xususan, atoqli Usmonli qomusiy olimi Hoji Xalifa Kotib Chalabiy *(1608–1657)* o‘zining “Kashf az-zunun an asomiy al-funun” asarida harbiy qurol-yarog‘lar yasash va ularni ishlatish ilmi din arkonlaridan biri ekanligini aytib, Muso ibn Shokir o‘g‘illarining bu borada foydali kitobi borligini eslab o‘tadi. Bundan Banu Musoning mazkur asari Usmonlilar saltanatida 17-yuz yillikda ham mashhur bo‘lganligini anglash mumkin.

Keyinchalik harbiy qurol-yarog‘lar to‘g‘risida maxsus asarlar yozish tutumi Turondan tashqaridagi boshqa turkiy davlatlardagi mutaxassis olimlar tomonidan davom ettirildi. Xususan, 13-yuz yillikda Shimoliy Afrika yerlarida tashkil topgan Buyuk Mamluklar davlatida bu masalaga jiddiy e’tibor berilgan. Bu davlatda yashab, ijod qilgan buyuk olim Najmiddin Abu Ja’far Hasan Hosib Rammoh Ahdab Kayravoniy *(vafoti 1295)* harbiy sohada yirik mutaxassis bo‘lgan. Uning Rammoh –“Nayzali, nayza tutgan askar” deb laqablanishiga ham shu sabab.

Najmiddin Rammoh Ahdabning harb ishiga oid birgina yirik asari “Kitob al-furusiyya val-munosib al-harbiyya” *(Otliq qo‘shin va harbiy amaliyotlar to‘g‘risida kitob)* bizgacha yetib kelgan. Hozirda bu asarning yagona nusxasi Parij Milliy kutubxonasida 2 825/1 sanog‘i ostida saqlanmoqda. Asar arab tilida yozilgan bo‘lib, unda urush olib borish yo‘sinlari: otliq yoki piyoda holda qanday jang qilish, saflarni yorib o‘tish, dushmanni quvish singarilar qatorida qilich, nayza, amid *(ustun)*, o‘qotar qurollardan manjaniq va boshqa shunga o‘xshash toshotarlarni jangda ishlatish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida ancha keng va qiziq ma’lumotlar beriladi.

Risolaning boshqa o‘ziga o‘xshash asarlardan farqli tomoni shundaki, unda “yoquvchi ko‘zgular”, ya’ni Quyoshning yorug‘ligini bir nuqtaga yig‘ib, o‘sha yerga o‘t qo‘yish vazifasini bajaruvchi ko‘zgular va dushmanga shiddatli hujum qilishda ishlatilgan “sun’iy olov” singari kamyob harbiy qurollar to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan asar muallifi turli ellarning, jumladan qadimgi rimliklarning urush qilish yo‘riqlarini, qurol-yarog‘larini yaxshilab o‘rganib, takomillashtirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi asarlar Mamluklar davlati deyarli uch yuz yil yashashida, o‘z harbiy kuchini saqlab turishida muhim o‘rin tutadi, albatta.

Aynan shu chog‘da tashkil topib, asta-sekin kuchaya boshlagan Usmonlilar saltanatida ham harb ishi masalalariga jiddiy e’tibor berilgan, bu sohaga oid bir qancha asarlar yozilgan. Ularning eng mashhurlaridan biri “G‘oyat at-tullob fiy funun al-ramy bin-nushob” *(O‘q otish san’ati bo‘yicha talabalarga yo‘riqnoma)* asaridir. Bu risola taniqli Usmoniy olimi, asli yunonistonlik Alouddin Tiybug‘o *(Toybug‘o)* Bakmilishiy Yunoniy *(vafoti 1394)* tomonidan 14-yuz yillikda arab tilida yozilgan. Asarning bizgacha yetib kelgan va hozircha yagona bo‘lgan nusxasi Tunis Milliy kutubxonasida 18 631 sanog‘i ostida saqlanib kelmoqda. Afsuski, shunday noyob va qimmatbaho asar hozirgacha to‘liq o‘rganilmagan, uning nashri ham amalga oshirilmagan.

Asarda kamondan o‘q otish, umuman, o‘q-yoy bilan jang qilish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida sodda yo‘sinda ma’lumot beriladi. Nomidan ko‘rinadiki, asar o‘z chog‘ida harbiy jang san’atini, jumladan yoydan o‘q otishni o‘rganayotgan yosh askarlar uchun asosiy darslik-yo‘riqnomalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Asar hozirgacha saqlanib qolganiga qaraganda, yuz yilliklar davomida bir necha avlod undan yuqoridagi maqsadda foydalangan. Bular asarning manbashunos-tarixchilar uchun bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, to‘rt ming yildan oshiq tarixga ega turkiy davlatchilikning bugungi kungacha yashab kelishida harb ishi, jumladan qurol-yarog‘lar masalasiga jiddiy e’tibor berilganligi muhim sabablardan biri bo‘lgan. Bunda esa shu sohaga oid qo‘lyozma manbalar, risolalar salmoqli o‘rin tutgan.

Islom BO‘RIYEV,
Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Harbiy san’at



Ko‘pchilik bahodirlar qanchalar kuchli bo‘lmasinlar, ular hargiz o‘z jahllari va qo‘rquvlaridan ustun kela olmaydilar.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

BOBURNING HINDISTONGA YURISHLARI: KANVA VA GAGRA YONIDAGI JANGLAR

Millatimizning faxr-u iftixori Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga, yirik davlat arbobi va harbiy san’at tarixida o‘chmas iz qoldirgan sarkardalardan hisoblanadi.

Bugungi murakkab sharoitda davlatning mudofaa salohiyati va jangovar qudratini yanada oshirish, Qurolli Kuchlarni izchil rivojlantirish masalalari hukumatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san’at tarixini chuqur o‘rganish, harbiy ilmni rivojlantirish, qo‘shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish barcha toifadagi rahbar, komandir va boshliqlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda harbiy xizmatchining ruhiy tayyorgarligi, ma’naviy dunyosi va ma’rifiy imkoniyati har qachongidan ko‘ra ko‘proq e’tibor talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: **“...milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning boy jang san’atidan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega”**.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga qilgan harbiy yurishlarida Kanva va Gagra yaqinidagi janglar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kanva yonidagi jangning asosiy sabablaridan biri – Boburning Dehli taxtida shoh bo‘lib qolish niyati edi. Ma’lumki, Rano Sango Ibrohim Lo‘diyga qarshi yurishda Boburni qo‘llamoqchi edi. Chunki uning fikricha, Bobur ham avvalgi bosqinchilar kabi yurtni talab bo‘lgach, orqaga qaytib ketishi, bu holda Dehlini u osongina qo‘lga kiritib olishi mumkin edi. Biroq Boburning Hindistonda qolish rejasi uning umidlarini puchga chiqardi va boburiylarga qarshi kurashayotgan afg‘onlarni qo‘llashni ma’qul ko‘rdi.

U Olamxon Lo‘diyni o‘z panohiga oldi, Mahmudxon Lo‘diyni esa Dehli hukmdori sifatida qabul qildi hamda o‘ziga qarshi turgan Hasanxon Mevotiy va boshqa afg‘on xonlariga umid ko‘zini tikdi. Shu bilan u o‘z kuchlarini Hindistondan boburiylarni quvib chiqarishga qaratganiga shama qilmoqchi bo‘ldi.

Hind tarixchisi doktor S.R. Sharma mana shu fikrni quvvatlab, shunday deb yozadi: “Bu hindlarning musulmonlarga qarshi urushi bo‘lmay, balki mamlakatning umumiy dushmaniga qarshi milliy kuchlarning hamkorlikdagi harakati edi”.

Shuning uchun rajputlar bilan boburiylar urushining kelib chiqishi zaruratga aylanib qoldi.

Bobur Rano Sangoni Ibrohim Lo‘diyga qarshi urushda yordam berishga va’da qilganiga qaramay, uning Boyona, Do‘lnur va Kolnini bosib olishiga xalaqit bergani uchun yomon ko‘rardi.

Rajputlar qo‘shini g‘azabnok holda ilgarilab, Boyona va Agrani bosib olishga intilardi. Mahmud Lo‘diy va Hasanxon Mevotiy o‘z qo‘shinlarini birlashtirib, ittifoq tuzdilar. Boburning ikkita ilg‘or qo‘shinini rajputlar mag‘lubiyatga uchratdi.

Bobur bu gal Panipat yonidagi afg‘onlar armiyasidan ko‘ra jiddiyroq raqib bilan yuzlashib turganiga ishonch hosil qildi. Rajputlarni shiddati va jasorati maqtovga loyiq edi.

Ularning boshlig‘i Rano Sango tajribali sarkarda bo‘lib, o‘z hayotida bir necha o‘nlab janglarda qatnashgan, shu urushlarda bir ko‘zi va bir qo‘lidan ajralgan, tanasida sakkizta jarohati bor edi.

Kobullik munajjim yulduzlarga qarab, navbatdagi urush boburiylarga mag‘lubiyat keltirishini bashorat qilgan edi.

Bu esa Bobur askarlarini tushkunlikka soldi. Biroq shu onda Bobur inson ruhiyatini yaxshi bilishini, kishilarni o‘z ortidan ergashtira olishi va lashkar oldida mohir sarkarda ekanini isbotladi. To‘planayotgan lashkariga murojaat qilib, ularning axloqiy-ruhiy holatini ko‘tardi, jangchilarni din va nomusini saqlash yo‘lida o‘lguncha jang qilishga chaqirdi, musulmonlardan olinadigan **“tamg‘a”** solig‘ini bekor qilganini, g‘ayridin kofirlarga qarshi **“jihod”** urushi e’lon qilganini aytdi. Bu murojaat kutilgan natijani berdi va Boburning askar hamda beklari o‘lguncha jang qilishga qasamyod qildi.

Fogehpur Sekri shahridan o‘n milcha *(16 km)* naridagi Kanva degan joyda ikkala qo‘shin yuzma-yuz keldi. Bobur rajputlar lashkarini ikki lak deb ta’riflasa, Uilyams Rashbrukning taxminiga ko‘ra, rajputlar qo‘shini boburiylardan 7-8 baravar ortiq edi. Lekin buni isbotlaydigan dalil yo‘q.

Doktor A.L. Srivasta esa haqiqatga biroz yaqinroq raqam (2:1)ni ko‘rsatadi, ya’ni rajputlar lashkari 80 ming kishi bo‘lsa, Bobur qo‘shini 40 ming kishi atrofida edi.

Rajputlar o‘z qo‘shinini odatdagicha, ya’ni chap qanot, o‘ng qanot va markaziy qismlarga bo‘ldilar. Bobur esa o‘z qo‘shinlarini Panipatdagi jangdagidek taqsimladi. O‘zi markazdan turib, qo‘mondonlik qildi. O‘ng qanotini o‘g‘li Humoyun mirzo boshqardi, chap qanotga esa bosh vazir Nizomiddin Xalifa boshchilik qildi. Mustafo o‘z zambaraklari bilan o‘ng qanotning oldida bordi. Ustod Aliquli o‘z to‘pchilari bilan markaziy qo‘shin oldida edi. Ikkala chekka qanotlarda esa “to‘lg‘ama”chilar guruhi borardilar.

Jang ertalab soat to‘qqizlarda *(1527-yil 17-mart)* boshlanib, chamasi o‘n soat davom etdi. Rano Sango og‘ir jarohatlanib, jang maydonidan olib chiqib ketildi. Rajputlar qo‘shini esa tor-mor etildi, g‘oliblik yana Boburga nasib etdi.

Ustalik bilan urush olib borish mahorati, qo‘shinga mohirona rahbarlik qilgan va to‘pchilarning zarbalari tufayli Bobur askarlari jangda yana ustun keldi. Rano jang davomida og‘ir yaralangan bo‘lgani uchun o‘z qo‘shiniga zarur paytda rahbarlik qila olmadi.

Bu hol ham uning askarlarini dovdiratib qo‘ydi. Shunga qaramay, bu omillarni mag‘lubiyatning ikkinchi darajali sabablari qatoriga qo‘shish mumkin.

Kanva jangi Panipatdagi jangdan ko‘ra muhimroq ahamiyatga molik edi. Rajputlar haqiqiy jasorat ko‘rsatib, qahramonona jang qildi. Ularning qo‘shini ancha intizomli bo‘lib, Rano Sango rahbarligida shiddat bilan jangga kirdi va hech biri xoinlik qilmadi. Son jihatidan ham rajputlar o‘z raqibidan ustun turardi. Shunga qaramay, ular yengildi. Bu esa boburiylar qo‘shinining qurollari va lashkarboshining harbiy mahorati raqibinikidan ustun ekanini ko‘rsatib turibdi. Bu jang rajputlarning harbiy qudratini batamom yakson qilmagan bo‘lsa-da, ularni ancha susaytirib qo‘ygandi. Rajputlar hukmron doiralarining deyarli hammasi bu jangda o‘zining eng yaxshi jangchilaridan ajralib qoldi.

Rano Sango 1528-yilda vafot etdi. Bu rajputlarni Dehli taxtini qaytarib olish umididan butunlay voz kechishga majbur qildi. Shu bilan afg‘onlarning ko‘rsatayotgan qarshiliklari ham susaydi. Hasanxon Mevotiy jangda o‘ldirildi, Olamxon Lo‘diy va Mahmud Lo‘diylar tumtaraqay qochib qoldi. Afg‘onlarning bu urushda yutib chiqishiga hech qanday imkoniyat qolmagan edi. Boburiylar uchun bu jang hal qiluvchi urush bo‘ldi. Bobur endi Hindistonda o‘zini xavfsiz his qilsa bo‘laveradigan vaziyat yuzaga keldi.

Albatta, bu hol bundan keyin ham boburiylar hokimiyatini mustahkamlash, qudratini yanada kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bobur endi Hindistonga mustahkam o‘rnashib oldi va uning hukmdorlik markazi Kobuldan Dehliga ko‘chirildi.

CHANDIRIY QAL’ASINING OLINISHI

Chandiriy qal’asi Molva va Bandilxond viloyatlari tutashgan joyda bo‘lib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etardi. Uning olinishi Molvani qo‘lga kiritish va g‘arbiy Hindiston bilan qilinadigan savdo yo‘lini egallash imkonini berar edi.

Bundan tashqari, bu qal’a rajputlarning boshliqlaridan bo‘lmish Medini Rao qo‘lida edi, u yaqindagina Molva hokimligidan voz kechgan va Rano Sangoga qo‘shilib Boburga qarshi Kanva jangida urushgan edi.

Bobur unga zarba berishga qaror qildi va Chandiriyni Shamsiobodga almashtirishni undan talab qildi, lekin bu talabiga rad javobini oldi. Bobur yana rajputlarga qarshi urush e’lon qilib, Chandiriy qal’asiga 1529-yilning 29-yanvarida hujum boshladi.

Medini Rao jangda o‘ldirilib, Chandiriy qal’asi qo‘lga olindi. Asir qilib olinganlar orasida Medini Raoning ikkita qizi ham bor edi. Boburning hukmiga binoan ularga alohida ehtirom ko‘rsatilib, biroz vaqt o‘tgach, ular Humoyun mirzo va Komron mirzoga nikohlab berildi. Bu hol esa Boburning o‘z raqibiga nisbatan nafrati kuchli ekanini, tinch aholiga nisbatan beg‘araz hukmdor bo‘lganidan dalolat beradi.

Bobur Chandiriy qal’asini o‘zining a’yonlariga bermadi. Uni Molva xoni Sulton Nosiriddinning nevarasi Ahmadshohga hadya qildi. Bu Bobur shohga xos diplomatik vositalardan biri bo‘lib, u Hindiston musulmonlarining hurmatini qozonmoqchi edi va shunday bo‘ldi ham.

GAGRADAGI JANG *(1529-YIL 6-MAY)*

Chandiriy qal’asi qo‘lga kirgach, Bobur Rayzin, Bxilza va Sarangpur viloyatlarini ham egallashga qaror qildi, chunki bu bilan Molvaga yaqin yo‘l ochilardi. Biroq buning imkoni yo‘q va bo‘lishi mumkin emas edi. Chandiriyni olishdan avval sharqdagi afg‘on qabilalari Boburni ancha tashvishga solib tugan edi. Bobur ularni ham bartaraf qildi.

Afg‘on xonlaridan biri Bengal xoni Nusratxonning qo‘llab-quvvatlashi tufayli ular Mahmudxon Lo‘diy boshchiligida Bexarga to‘plandi. Lekin Boburning bu tomonlarga kelayotganini eshitishlari bilan orqaga qaytishdi.


Mahmudxon No‘xoniy, Jalolxon, Shershoh sur va Faridxonlar esa taslim bo‘ldi. Ularni afv etgach, u yana yo‘lda davom etib, Bexarga yaqinlashdi. Bobur afg‘on to‘dalarining tahlikasidan birato‘la qutulish niyatida edi.

Shunga qaramay, Bengal xoni Nusratxonni urushga jalb qilgisi kelmadi. Lekin unga izg‘ib yurgan qochoq afg‘on xonlariga boshpana va yordam bermaslik sharti qo‘yildi. Shu shartga binoan, Bobur Bengalga tegmay o‘tib ketdi. Mahmudxon Lo‘diyning afg‘on askarlari Gagra daryosi bo‘ylarida *(1529-yil 6-mayda)* Bobur qo‘shini bilan yuzma-yuz jang qilishga majbur bo‘ldi va shu jangda ular butunlay yanchib tashlandi.

Mahmud Lo‘diy Bengal tomon qochib qutuldi, ko‘pgina afg‘on isyonkorlari Boburga taslim bo‘ldi. Bengal shohi Nusratshoh boburiylar bilan chegaralarni buzmaslik haqida o‘zaro sulh tuzdi. Bexarning bir qismini Bobur o‘z ixtiyorida qoldirib, qolgan qismini o‘z izmidan chiqmaslik sharti bilan afg‘onlarga berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni 2022-yil 21-aprel kuni Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida “Biz birinchi navbatda o‘zimizning bobolarimiz tarixini o‘rganishimiz kerak. Afsuski, biz ko‘p yillar boshqalar tarixini, bizga aloqasi bo‘lmagan janglarni o‘rgandik”, deb ta’kidlab o‘tdilar. Darhaqiqat, buyuk sarkardalarimiz harbiy san’atini chuqur o‘rganish, bu ma’lumotlarni kelajak avlodga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Polkovnik Radislav MAVLYUTOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
sikl boshlig‘i







HARBIYLAR CHAVANDOZLIKDA BELLASHDI

Ot – er yigitning qanoti. Chavandoz uni yelday uchirganida o‘ziga ruhiy quvvat olib, ustida burgut yanglig‘ parvoz qiladi. Ayniqsa, yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlab kelayotgan harbiylarning transport vositalari yetib borishi qiyin va murakkab bo‘lgan joylarda belgilangan topshiriqlarni bajarishlarida ushbu xizmat otlarining o‘rni beqiyos.







Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida joylashgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga qarashli harbiy qism dala maydonida Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Ot poygasi” milliy etnosport turnirining tantanali ochilish tadbirida ham ana shu jihatlar tilga olinib, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yilqichilik, xususan milliy “brend” hisoblangan “Qorabayir” zotli tulporlarni yetishtirish, ko‘paytirish va shu orqali ot sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani haqida to‘xtalib o‘tildi.

Poygada Mudofaa vazirligi, DXX Chegara qo‘shinlari, Milliy gvardiya va Bojxona qo‘mitasidan jamoalar ishtirok etib, musobaqani dastlab 800 metrli masofaga yuguruvchi otliq chavandozlar boshlab berishdi. Finishga birinchilardan bo‘lib “Lotos” va “Limon” laqabli xizmat otlari bilan DXX Chegara qo‘shinlari sharafini himoya qilgan III darajali serjant Rafiqjon Zokirjonov hamda II darajali serjant Ulug‘bek Avazovlar yetib kelgan bo‘lsa, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi kichik serjant Og‘abek O‘rolov o‘zining “Tumor” laqabli tulpori bilan marrani uchinchi o‘rinda bosib o‘tdi.

Navbatdagi 1 000 metrga ot chopish musobaqasida ham chegarachilar raqiblariga nisbatan o‘z ustunligini namoyon etib, faxrli birinchi o‘rinni “Qibray” laqabli oti bilan ishchi-xizmatchi Ma’ruf Tog‘ayev egalladi. Ikkinchi o‘rinni III darajali serjant Ahror Suyarov “Sazan” laqabli oti bilan qo‘lga kiritgan bo‘lsa, uchinchi o‘rin Mudofaa vazirligi vakiliga nasib etdi. Shuningdek, keyingi uzoq masofali 1 200 metrli poygada ham otlarning tezkorligi, chidamliligi va chavandozlarning mahorati sinovdan o‘tkazilib, Mudofaa vazirligi chavandozi Og‘abek O‘rolov bu gal “Raketa” laqabli tulpor bilan marra chizig‘ini birinchi bo‘lib kesib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi.

Keyingi o‘rinlarni DXX Chegara qo‘shinlari, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya chavandozlari qo‘lga kiritdi.

Musobaqaning so‘nggi va eng uzun 1 400 metr masofali bellashuvlari ham qizg‘in va murosasiz bahslarga boy tarzda kechdi. Ushbu yo‘nalishda Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi birinchi, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi ikkinchi hamda Milliy gvardiya jamoasi vakili faxrli uchinchi o‘rinni egalladi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni DXX Chegara qo‘shinlari jamoasi egallagan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi o‘rinlar Mudofaa vazirligi hamda Milliy gvardiya jamoalariga nasib etdi. Tadbir davomida g‘olib ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan kubok, diplom, medallar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, faol ishtiroki uchun qator vazirlik va idoralarning vakillariga yuqori qo‘mondonlikning tashakkurnomalari hamda mamlakatimizda ilk bora o‘tkazilgan “Chavgon” ot sporti musobaqasida faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilariga esdalik uchun qo‘lsoat va pul mukofotlari ham tantanali tarzda topshirildi.

– Bugungi musobaqa shiddatli va shu bilan birga do‘stona raqobat ruhida kechdi. Chunki barcha jamoalar juda yaxshi tayyorgarlikka ega edi. Biz ham, o‘z navbatida, xizmat otlarimiz bilan o‘tkazgan tinimsiz mashqlarimiz evaziga, umumjamoa hisobida yuqori natijani qayd etib, g‘alabani qo‘lga kiritdik. Albatta, tashkil etilayotgan bu kabi musobaqalar harbiy xizmatchilarning jismoniy imkoniyatlarini yanada oshirishi va chiniqtirishi bilan birga, kuch tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni ham mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz,– deydi musobaqa g‘olibi kichik serjant Bahodir Sheraliyev.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar tomonidan ot ustida ko‘rsatilgan akrobatik mashqlar va xizmat itlari ishtirokida namoyish etilgan ko‘rgazmali chiqishlar ham yig‘ilganlar, ayniqsa yosh avlod vakillarida katta taassurot qoldirdi.

Chegara qo‘shinlari harbiy orkestri hamda Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan vatanparvarlik, mardlig-u jasoratni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar barchaga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Umirzoq HAMDAMOV, jurnalist
DXX Chegara qo‘shinlari

Konferensiya

HARBIY SOHADA XORIJIY TILLARNI O‘QITISH

Qurolli Kuchlar akademiyasida “Harbiy sohada xorijiy tillarni o‘qitishga innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi tayyorlash markazi, mamlakatimizdagi bir qator oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda Hindiston Qurolli Kuchlari vakillari hamda kursantlar ishtirok etdi.









Tadbirda so‘zga chiqqan Qurolli Kuchlar akademiyasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i polkovnik Muhsinali Xonsaidov konferensiya qatnashchilariga Qurolli Kuchlarda malakali ofitser kadrlar tarkibini tayyorlash tizimini takomillashtirishda xorijiy tillarni o‘qitish sohasidagi innovatsion texnologiyalar, yangi o‘quv-uslubiy va texnik imkoniyatlar, zamonaviy pedagogika muammolari va dolzarb masalalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi. Shuningdek, bugungi globallashuv davrda madaniyatlararo muloqot, mamlakatlararo yaqin hamdo‘stlik va albatta, harbiy hamkorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etishini, shu sabab xorijiy tillarni o‘zlashtirishning samarali usullariga bo‘lgan talab ham ortishini ta’kidladi.

Shundan so‘ng dastlab Markaziy Osiyo universiteti o‘qituvchisi Billura Tolipova “Zamonaviy va an’anaviy ta’lim uyg‘unligi” mavzusida ma’ruza qildi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi tayyorlash markazi o‘qituvchisi polkovnik Umed Ahmedov esa sun’iy intellektning harbiy kadrlarga ingliz tilini o‘qitishdagi ahamiyati borasidagi qimmatli ma’lumotlari bilan o‘rtoqlashdi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsentlari *(Phd)* Gulnora Nosirova va Nilufar Muhammedova assessment savodxonligi va assessment topshiriqlarini yaratish mavzusidagi amaliy topshiriqlarga asoslangan chiqishlari bilan barcha ishtirokchilarni yanada faollashtirdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi assistenti Yulduz Parpiyevaning “Xorijiy tilni o‘zlashtirishda nevrologik assotsiativ jarayonlarning ahamiyati”, hindistonlik ekspert polkovnik Binhuti Kumar Jhaning “Informatsiyalashgan davrda texnologiyalar ta’limi” deb nomlangan ma’ruzasi ham konferensiya ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Polkovnik N. UMAROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
boshlig‘i o‘rinbosari.
Nigora TO‘RAYEVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Tillar kafedrasi mudiri

Uchrashuv

YOSHLAR HARBIYLAR HUZURIDA

Xayrobod garnizonidagi harbiy qismda otaliqqa olingan yoshlar bilan rahbar va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Denov tumani Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda tumandagi birinchi sektorga biriktirilgan yoshlar ishtirok etdi.









Ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvda so‘zga chiqqanlar, mamlakatimizda ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom, Vatanga sodiq farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazish borasida hukumatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik haqida atroflicha fikr yuritdi. Bu kabi tadbirlarning ahamiyatiga to‘xtaldi. Shu asnoda yosh avlodni harbiy qismlar va zamonaviy texnika, qurol-aslahalar bilan bolalikdan tanishtirishning mazmun-mohiyati, Vatan himoyachisi bo‘lishdek sharafli kasbni tanlayotgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida fikr almashildi. Oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish, muddatli harbiy xizmatni o‘tash tartib-taomillari tushuntirildi. Yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

– Bolaligimdan harbiy sohaga qiziqaman, – deydi tumandagi 75-umumta’lim maktabi o‘quvchisi Abdulaziz Berdirasulov. – Harbiy libosda yurgan akalarimni ko‘rganimda yuragimda o‘zgacha hislar jo‘sh ura boshlaydi. Bugungi uchrashuv men uchun foydali bo‘ldi. Chunki oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari haqida o‘zimni qiziqtirib kelayotgan savollarga javob oldim. Bu mening o‘qishga yanada puxta tayyorgarlik ko‘rishimda yordam beradi.

– Uchrashuvda merganlik sirlarini o‘rgatadigan o‘quv kurslari tashkil etish taklifini ilgari surdim, – deydi 81-maktab o‘quvchisi Umida Bahodirova. – Bu fikrim qo‘llab-quvvatlanganidan juda xursandman.

Tadbir tashkilotchilarining ta’kidlashicha, harbiy qismda tashkil etilgan mazkur uchrashuv o‘g‘il-qizlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashib, xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga yoshlarning ona Vatan, tinch, to‘kin hayot va farovon turmush haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV



Tibbiyot instituti talabalari bitiruv oqshomiga tayyorgarlik ko‘rayotgan bir paytda urush boshlangani haqida xabar keldi. O‘sha kuniyoq butun mamlakat bo‘ylab safarbarlik e’lon qilina boshlandi. Ko‘ngilli sifatida ariza berganlar orasida kursdosh dugonalar Anvara Muharramova bilan Muqaddam Ashrapova ham bor edi. Anvara frontga yuborildi. Ammo negadir Muqaddam Tojikistonga ishga yuboriladi. Yosh shifokor qisqa muddat ichida vrachlik uchastkasi rahbarligidan, tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri lavozimigacha yetib bordi. Ammo frontga ketish istagi unga tinchlik bermadi, 1943-yilning fevralida Muqaddam ham frontga ketdi.

“Ko‘nglim sal taskin topdi...”



Shu tariqa Muqaddam Ashrapova tibbiy xizmatni dastlab Shimoli-g‘arbiy frontning harakatdagi gospitalida vrach-ordinatorlikdan boshladi. Voronej frontining aloqa polkida katta vrach, Ukraina frontining o‘qchi polkida vrach, 4-Ukraina gospitalida hamda 340-o‘qchi diviziyasining tibbiy-sanitar batalyonida ordinator bo‘lib xizmat qildi. G‘alabani o‘z xizmat postida kutib olgan Muqaddam 1945-yil iyulda ko‘ksi to‘la orden va medallar bilan Turkiston harbiy okrugining shtab sanitar bo‘limiga yuborildi...

Urush qatnashchisi, tibbiyot fanlari doktori, professor, fan arbobi, mashhur xirurg Muqaddam Ashrapova mening xolam *(oyimning opasi)* bo‘ladi. Xolam 1919-yilning 17-dekabrida Toshkent shahrida tug‘ilgan. Dastlabki savodni otasi *(buvam)* Saidashrafxon qo‘lida chiqargan ekan.

Xolam urush haqida eslashni yoqtirmas, shunga qaramay, biz baribir so‘rayverardik. Bir kun buvamni eslab turib, so‘rab qoldim:

– Muqaddam opa, buvam nega yoshgina qizga frontga ketish uchun ruxsat bergan?

– Ee, ruxsat qayoqda deysan! Moskvaga o‘qishga yuborishyapti, deb dadamni zo‘rg‘a ko‘ndirganman. Frontdan uchburchak xat olgandan keyingina urushga ketganimni bilib qolgan.

– Keyinchi, koyimaganmi?

– Rahmatli dadam koyish o‘rniga, “Mayli, o‘g‘lim yo‘q deb o‘ksib yurardim, sen mening ham o‘g‘lim, ham qizimsan, mard bo‘l, to‘g‘ri bo‘l! Olgin-u oldirmagin, omadingni bersin, ona qizim!” deb yozar edi. Dadamning bunday xatlarini olganim sari ko‘nglim tog‘dek ko‘tarilar edi.

Muqaddam Ashrapova urushda ko‘rsatgan jasoratlari uchun “Qizil Yulduz” va “Hurmat belgisi” ordenlari bilan mukofotlangan. Uning urushdan keyingi mehnat faoliyati ham yuqori baholandi.

Urushdan keyin esa O‘rta Osiyo davlat universitetining Harbiy kafedrasida ikki yil o‘qituvchi bo‘lib ishladi. So‘ng o‘zi bitirgan jonajon institutiga ishga qaytdi va umrining oxirigacha shu yerda ishladi. Fakultetda Jarrohlik kafedrasining assistenti lavozimida ish boshlagan Muqaddam opa tez orada ilmiy izlanishlarini boshlab yuboradi. Avvaliga tibbiyot fanlari nomzodi, keyin esa tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan shifokor” va professor unvoni berildi. Umumiy Jarrohlik kafedrasining dotsenti, stomatologiya fakulteti kafedra mudiri va dekan lavozimlarida ishladi. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvonini oldi.

1994-yili II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni va “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

M. Ashrapova 100 ga yaqin ilmiy maqola muallifi bo‘lib, uning rahbarligida 10 ta nomzodlik va 1 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Har gal Muqaddam opa bilan birga ishlagan, uning qo‘l ostida davolangan insonlar bilan uchrashar ekanman, bu insonni qaytadan kashf etaman. U kishining bosib o‘tgan hayot yo‘llariga chetdan qarab, bu yo‘lning sermazmunligini, ulug‘vorligini, Muqaddam opa tufayli qanchadan qancha insonning hayoti saqlab qolinib, ular dardiga malham bo‘lganini his qilaman.

Xolam bir umr halol yashadi va atrofdagilardan ham shuni talab qildi. Kerak bo‘lsa, ko‘ylaklariga yamoq solar, tuflisini o‘zi tikar, ammo biror bir odamdan ta’magirlik qilmasdi. Bir so‘z bilan aytganda, faoliyatida qanchalik yuksak ishlarni bajargan bo‘lsa-da, uyda oddiy o‘zbek ayoli singari hamma yumushlarni o‘zi bajarardi. U kishi pishirgan limonli piroglar, holvaytar, no‘xat sho‘rvalar ta’mi og‘izda qolardi.

Muqaddam opa hayotni, san’at va adabiyotni juda sevardi. Ko‘pgina taniqli adiblar va san’atkorlarni qattiq hurmat qilar, ular bilan samimiy do‘stona suhbatda bo‘lardi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik, xalq shoiri Zulfiyaxonim, xalq artistlari Yunus Rajabiy, Mukarrama Turg‘unboyeva, Rixsixonim Ibrohimova va taniqli jamoat arbobi Xosiyatxon Yoqubjonova shular jumlasidan.

M. Ashrapova jamoat ishlarida ham juda faol edi. Ayniqsa, urushda halok bo‘lgan va bedarak ketgan askarlar xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ishlarda ko‘proq jonkuyar bo‘ldi. Motamsaro ona haykalini o‘rnatish, uning poyiga o‘zbek jangchilari halok bo‘lgan joylardan tuproq olib kelishdek xayrli ishda astoydil qatnashib, jonbozlik ko‘rsatganlardan biri Muqaddam opa edi. O‘shanda O‘zbekistonlik bir guruh faxriylar bilan Rossiya Federatsiyasi va Ukraina shaharlaridan tuproq olib kelishgandi.

Motamsaro ona haykali yonida “Xotira” kitobi qo‘yilgach, uning ochilish marosimida qatnashib kelgan xolam:

“Bugun ko‘nglim sal taskin topdi, urush sabab erini yo‘qotgan bevalar, otasiz qolgan farzandlar, yaqinlaridan judo bo‘lganlar endi shu yerga kelib, ular haqqiga Qur’on tilovat qilishlari uchun imkon yaratildi. Og‘ir janglarda yaralanib, operatsiya stolimda jon taslim qilgan ne-ne o‘zbek jangchilarining ruhlari shod bo‘ladigan bo‘ldi”, deb xursand bo‘lganlari yodimda.

Urush qatnashchisi, umr yo‘llarini mehr va jasorat gullari bilan bezagan taniqli olima, professor, shifokor-jarroh, jonkuyar murabbiy, biz uchun oddiygina xolaposhshamiz Muqaddam Ashrapovaning xotiralari el-yurt uchun jonfido qilgan minglab yurtdoshlarimiz qatori vatandoshlari, shogirdlari, qarindosh-urug‘lari, farzandlari qalbida abadiy saqlanadi.

Professor Alisher FAYZULLAYEV

Oydinlar tavsiya etadi



KITOB BUYURTMASI RAJABOVANIKI...

“BU KITOB MENGA YAXSHI BIR OTA-ONANI NASIB QILDI”

Sahifamizning bu galgi mehmoni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Burobiya Rajabova. Taniqli olima Vatan himoyachilariga begona emas. Oliy harbiy dargohlarda, xususan Qurolli Kuchlar akademiyasida bir necha bor hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qiziqarli ma’ruzalar qilgan. Kaminangiz ham millat oydinining o‘shanday suhbatlaridan birida faqat qalam sohibi sifatida bilganimiz hazrat Alisher Navoiyning tadbirli jangchi ham bo‘lganini tinglab hayratga tushgan. Quyida oydinimiz Burobiya Rajabovani olim qilgan muhit, kitoblar, kitobxonlar, bolalar kitobxonligi, Vatan himoyachilariga tavsiyalari haqida suhbatidan bahramand bo‘lasiz.

– Har bir inson hayotida birinchi asosiy omil – u dunyoga kelgan, voyaga yetgan oila o‘chog‘i, oila muhiti. Olloh menga yaxshi bir ota-onani nasib qildi. Mehnatkash, halol, ma’rifatli, oilaparvar, xalqparvar insonlar bo‘lib, ulardagi eng oliy nuqta – farzandlariga oliy ne’mat deb qarab, tarbiyamizda to‘g‘ri yo‘l tutganlari. Men katta bir oilada tarbiyalandim. Oilada o‘n farzand – olti o‘g‘il, to‘rt qiz voyaga yetdik. Hammamiz otaparvar, onaparvar, non va tuz haqini hurmat qiladigan insonlarmiz.

Ma’lumki, farzandlar ham turli sana, oy, fasl, turli yulduzlar ostida tug‘iladi. Kimdir kitobga, kimdir hunarga, kimdir san’atga intiladi. Biz hammamiz kitobga oshno bo‘ldik. Menda kitobsevarlik balandroq bo‘lsa kerak, buni sezgan ota-onam o‘z vaqtida diqqat qaratishgan. Men qiziqqan kitoblarni olib berishgan. Uyda mening o‘z kitob burchagim bo‘lgan, javonlarim oy sayin kitob bilan boyigan.

Maktab, qo‘rg‘on, oliy dargoh, Fanlar akademiyasi qoshidagi kutubxonalardan hayotim davomida unumli foydalandim, minnatdorman. Shu sabab kutubxona xodimlari hayotimda eng qadrli, yuragimga yaqin insonlar hisoblanadi. Ular mening qahramonlarim!

Xo‘jand shahrida joylashgan viloyat kutubxonasida besh yil kitob o‘qiganman. Bitta kitobning uch-to‘rtta kartoteka varianti bo‘lar va men hamma variantini yozib borar edim. Kutubxonachilar bir-biriga: “Bu kitob buyurtmasi Rajabovaniki, yaxshi qaranglar, hamma kartotekani qaranglar”, deb bir-birlarini ogohlantirar va mamnuniyat bilan buyurtma kitoblarimni topib berar edilar. Ularning kuyinib, mehr bilan kitob topib berishlari hamon ko‘z o‘ngimda. Yana Fanlar akademiyasi kutubxonasi xodimlaridan ham juda baland mehr, e’tibor ko‘rdim.

Men kitobga oshno ko‘nglimdan minnatdorman. KO‘NGIL BILAN, IXLOS BILAN KITOBGA INTILISH BU ANCHA BALAND TUYG‘U! Shuning uchun o‘qigan kitoblarim xotiramda yaxshi qoladi. Barcha bolalar kabi kitob o‘qishni ertaklardan boshlaganman. Katta muhtasham asar esa bu Oybek domlaning “Navoiy” romani bo‘lgan. Bu roman sabab men buyuk Navoiyning shaxsiyati, asarlari, u yashagan davr va asarning boshqa qahramonlari hayotiga oshno bo‘lganman, yana ko‘plab roman, qissalarni o‘qishimga ta’sir qilgan. Hatto tarix faniga qiziqishimni orttirgan.

Keyinchalik jahon adabiyotidan ko‘plab asarlar o‘qidim. O‘qigan asarlarim yuzasidan kundalik tutishni o‘rgandim. O‘qigan kitoblarimning qahramonlari, syujeti, asar g‘oyasi va o‘zim chiqargan xulosalar xususida qisqa izohlar, sharhlar yozdim, ular keyinchalik maqolalarga aylandi.

Demoqchimanki, kitobxonlar o‘qigan kitoblari uchun maxsus kundalik tutishsin. Kitobdan olgan taassurotlarini qisqa bayon qilishsinki, bu bayonlar ularning fikri, qalbi, ong-shuuri keng bo‘lishiga yordam beradi!

Mening fikrimcha, kitob har bir kitobsevar uchun haqiqiy do‘st, beminnat ustoz, ma’lum ma’noda, zamon bilan, davr bilan hamnafas bir mo‘jiza hisoblanadiki, u go‘zal bir dunyolarga oshno qiladi, hidoyatga yetaklaydi, to‘g‘ri yo‘lga soladi. Qolaversa, KITOB INSONNING RIZQ KALITLARIDAN BIRIDIR! Bir olima sifatida xulosam shuki, olim ham kitob mutolaasi bilan kuchli olim, tadqiqotchiga aylanadi.

BOLALAR KITOBXONLIGI... Insonning ko‘p kitob mutolaa qilishida oila muhiti va kutubxonalarning ta’siri katta. Ulug‘ Navoiy va Bobur asarlarini o‘qisangiz, ular kelajak avlodning barkamol bo‘lishini nazarda tutib, o‘zlari o‘qib-o‘rgangan uch yuzga yaqin kitob va muallif nomini asarlari matnida yozib qoldirgan. Yoki Bobur “Boburnoma” memuarida otasi Umarshayx Mirzoning Firdavsiy “Shohnoma”sini, Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”larini, Rumiyning “Ma’naviy masnaviy”ini ko‘p mutolaa qilishi haqida ma’lumot yozgan. Muhimi, otasi ta’sirida o‘zi ham bu kitoblarni qo‘liga olgan.

Bolajonlarning kitobsevar bo‘lishida faqat onalarimiz emas, balki otalarimiz ham himmat ko‘rsatsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Abdurahmon Jomiy otasi kitoblar o‘qitib uning aqlini to‘ldirgani, arab tilini o‘rgatganini faxr tuyg‘usi bilan eslaydi hamda “Otam – mening ustozim!” deb e’tirof qiladi. Istagimiz, ota-onalar o‘z bolalari taqdirida ularning ustozjonlariga aylansa.

Bugungi global zamonda ota-onalarimiz farzandlarini faqat yaxshi yeb-ichirish, go‘zal liboslarga burkash, madaniy dam olishning turli vositalarini tavsiya qilishdan tashqari, ularning dasturlarida farzandi arjumandining qo‘liga kitob olish va o‘z xohishi bilan kitobni rozi bo‘lib, ixlos bilan o‘qish, o‘qigan kitoblari xususida erkin, bemalol, to‘lqinlanib gapirib berish holatlarini ham tashkil qilish, shakllantirish va rag‘batlantirishi kerak. Demak, kitob borasida ham ota-onalarimizda gap ko‘p, hikmat ko‘p.

Kitobga oshno ko‘ngil ilm-fanning turli sohalariga qiziqishi, intilishi yaxshi bo‘ladi. Zero insonni har qanday vaziyatda ilm qutqaradi.

VATAN HIMOYACHILARIGA TAVSIYALARIM – harbiylarda fuqarolik tuyg‘usi, vatanparvarlik fazilati boshqa insonlarga nisbatan ancha baland bo‘ladi. Lekin ular ham bu noyob tuyg‘ulari susaymasligi, yuksalib borishi uchun buyuk insonlarning tarixini, tuzuklarini, tartiblarini va ular haqida yozilgan tarixiy, badiiy, sarguzasht asarlarni o‘qib borishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, Vatan himoyachilariga Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy *(harbiy ham bo‘lgan)* Bobur Mirzolar bilan bog‘liq asarlarni qayta-qayta o‘qishlarini tavsiya qilaman. Shuningdek, yuksak mahorat bilan yozilgan milliy va jahon adabiyoti namunalarini ham topib o‘qishlari kerak.

Bir kitobxon sifatida yana shuni aytishim kerakki, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” kitobini o‘qishlari lozim. Chunki bu kitobda 60 ta axloqiy, siyosiy, iqtisodiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalarning izohi berilgan, ularga misol sifatida sura, oyat, hakimlarning hikmatlari, daho shoirlarning shohbaytlari, hikoyatlari keltirilgan. Mana shu muhim tushunchalarni yaxshi bilgan harbiylarimizda, o‘ylaymanki, o‘zaro muomala madaniyati yuksaladi va kasblarida kutganidan ziyoda kamol topadilar.

Hurmat bilan

Burobiya RAJABOVA,
O‘z RFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi



“SIZGA SALOMATLIK TILAYMAN!”

> Atrofdagi kishilarga mutlaqo e’tibor bermay, o‘zlarining bachkana qiliqlaridan uyalmay, bir-birini cho‘lp-cho‘lp o‘payotgan kishilarni ko‘p ko‘rganmiz. Qiziq, xalqimizning urf-odatlarida bunday salomlashish tarzi avvaldan bormidi yoki madaniy saviyasi kundan kunga “ortib” borayotgan ayrim zamondoshlarimizning o‘zlari bu odatni “kashf” etishdimi? Bu savollar kishini o‘ylashga majbur etadi. Ayni masalada mulohaza yuritgan sayin salomlashish bilan bog‘liq noxush harakatlar birin-ketin bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Buni qarangki, salomlashish faqat o‘pishishdan iborat emas ekan…



Salomlashish dunyodagi deyarli barcha xalqlarga xos odat, salomlashmaydigan xalq yo‘q hisobi. Salom turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi. Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, turli tillardagi bu salomlashuvlarning barchasi mazmunan har xil so‘rashish, yaxshi tilak tilashni anglatadi. Demakki, salomlashish ezgu odatlar sirasidandir. Salomlashishning so‘z orqali ifodalanmaydigan usullari ham uchraydi. Masalan, ba’zi bir xalqlarda imo-ishoralar orqali ham salom beriladi. Xususan, afg‘onlarning o‘ng qo‘lini peshonasiga tekizib, ta’zim qilishini, ayrim ovro‘paliklarning bosh kiyimini yechib, qayta kiyishini, tibetliklarning bir-biriga tilini chiqarib, tirjayib qo‘yishi-yu, bosh irg‘ashlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Salomlashish faqat hol-ahvol so‘rashishni emas, balki kishilarning psixologiyasini ham aks ettiradi. E’tibor berganmisiz, kimdir qo‘l uchida, yana kimdir qo‘shqo‘llab, boshqasi esa qo‘lini qoringa qo‘yib salomlashadi. Bunday ko‘rishishlarning yana ko‘plab “yo‘l-yo‘riq”larini keltirib o‘tish mumkin. Albatta, qo‘l uchida ko‘rishgan kishining o‘ziga bino qo‘yganini payqash qiyin emas. Zero uning bu harakati ko‘rishayotgan birodarini o‘zicha mensimayotganini bildirsa, qo‘shqo‘llab ko‘rishayotgan odamning xatti-harakatlaridan so‘rashayotgan kishini qattiq hurmat qilishini anglab olamiz.

Endi salomlashishda talaffuzning o‘rni haqida mulohaza qilib ko‘raylik.

“ASSOM ALAYKUM”MI, “ASSALOMU ALAYKUM”?

O‘zbek xalqi, umuman, musulmon olami uchun besh vaqtli ibodatdan tashqari, salomlashish ham umumiy bo‘lib, bir xil – “assalomu alaykum” kalimasidan iboratligini har bir kishi yaxshi biladi. Bu arabcha kalima “sizga tinchlik tilayman”, degan ma’noni anglatadi. Ammo uni har kim har xil tarzda talaffuz qiladi. Masalan: “assalom”, “salomalaykum”, “salom”, “assom alaykum” va hokazo. “Assalom, salom”, “salomalaykum” deganda so‘zlar talaffuziga biroz putur yetkazsa-da, asosiy ma’no buzilmaydi. Ammo “assom alaykum” deganda salomlashishning tub ma’nosiga zid mazmun yuzaga keladi. Ya’ni “assom alaykum” so‘zi “sizga halokat tilayman” degan ma’noni ifodalab, yomon niyat yoki qarg‘ish ma’nosini kasb etadi. Demak, ba’zi yoshlarimiz tomonidan talaffuz etilayotgan bunday salomlashish salbiy mazmunga egaligini ularga tushuntirish foydadan xoli emas.

QO‘L BERIB SO‘RASHISH

Og‘zaki so‘z orqali ifodalangan salomlashishdan so‘ng aksariyat kishilar qo‘l berib ko‘rishadi. Qo‘l berib ko‘rishish odamlar orasida ibtidoiy davrdayoq odat tusiga kirgan va hozirda xalqaro salomlashishning rasmiy shakli hisoblanadi. Qo‘l berib so‘rashishning paydo bo‘lishini etnograf va arxeologlar quyidagicha izohlashadi.

Ibtidoiy odamlar bir-biriga duch kelganda, “Men seni o‘ldirmoqchi emasman, qara, qo‘limda tosh yo‘q” degan ma’noda bir-birlarining qo‘llarini ushlab qo‘yisharkan. Demak, qo‘l berib salomlashish juda qadimdan qolgan va dunyo ahliga xos odatga aylanib ketgan.

Qo‘l berib so‘rashishning o‘ziga xos tartib-qoidalari mavjud bo‘lib, bu qoidalar ziyoli ajdodlarimiz tomonidan tartibga solingan inson axloqining eng oliy namunasidir.

Hech qachon yoshi kichik yigit yoki bola o‘zidan kattaga salom berganda, birinchi bo‘lib qo‘l uzatmaydi. Albatta, bu qoidada ham o‘ziga xos hikmat mavjud. Ya’ni yosh yigit o‘zidan kattaga qo‘l uzatsa-yu, ammo yoshi ulug‘ kishi qo‘l berishni lozim topmasa, yoxud keksaligi sabab qo‘l uzatishga hayallasa, bunday holda noqulay vaziyat sodir bo‘ladi. Demak, qo‘l berib so‘rashishda ham o‘ziga xos me’yorlarga e’tibor berish lozim.

BULAR QUYIDAGILAR:

– erkak kishi bilan erkak kishi qo‘l berib so‘rashganda avval yoshi ulug‘i qo‘l uzatadi. Agar yoshi ulug‘i qo‘l uzatmasa, yoshi kichigi qo‘l uzatishdan tiyilib turadi;

– ayollar ham o‘z toifasi bilan qo‘l berib so‘rashishlari mumkin;

– begona erkaklar bilan ayollarning qo‘l berib so‘rashishlari nojoizdir.

XUNUK QILIQLAR

O‘tgan asrning yetmishinchi yillariga doir xronika lavhalarini kuzatgan bo‘lsangiz, sobiq Ittifoqning yuqori lavozimdagi korchalonlari bir-birlari bilan quchoqlashib, o‘pishib ko‘rishganiga ko‘zingiz tushgandir. Bu qiliq o‘sha davr odamlari uchun oddiy hol bo‘lib, rahbarlar, partiya tashkilotlarida odat tusini olgan ekan. “Olgan ekan”, deb o‘tgan zamon fe’lida yozayotganimizning boisi shundaki, bizning o‘zimiz ham u zamonni va o‘sha odatlarni ko‘rmaganmiz. Yuqorida yozganlarimiz esa sobiq tuzumni ko‘rgan, uning odatlari-yu an’analaridan yaxshi xabardor bo‘lgan keksalarimizdan eshitganlarimiz. Ularning aytishlaricha, oshkoralik davriga kelib rahbarlarning bu tarzda ko‘rishishlari “partiynaya erotika” degan tamg‘a otida tanqidga uchragan ekan. Chunki bu holdan chet elliklar kulgan, aslida ham bu g‘ayriaxloqiy harakat salomlashish odobi doirasidan chiqib ketgan illat edi.

Ammo o‘pishib ko‘rishish kasali shu bilan barham topgani yo‘q, balki u jamiyatda o‘xshamagan bir ortiqcha, xunuk qiliq sifatida hanuz uchrab turadi. Ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida bir-birlari bilan o‘pishib ko‘rishayotganlarga ko‘zingiz tushgandir. To‘g‘ri, ularning aksariyat qismi ovro‘paliklar, ammo ular orasida millatimiz vakillari ham uchraydi.

Umuman olganda, erkak bilan erkakning, ayol bilan ayolning yoxud ikki jinsning bir-birlari bilan o‘pishib ko‘rishishi millatimiz ma’naviyatiga to‘g‘ri kelmasligi hech kimga sir bo‘lmasa kerak. Lekin bu holning kundan kunga keng tarqalayotganini afsus bilan ta’kidlashdan boshqa iloj yo‘q. Axir har kuni bir-birini ko‘rib turuvchi yigitlarning bir-biri bilan o‘pishib ko‘rishishini qanday tushunish mumkin? Yoshlarimiz o‘zlaricha fazilat sanayotgan bu holatning na etika, na gigiyena qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan illat ekanini bilisharmikan?

XULOSA

Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odati, an’analari, marosimlari bor. Bularning barchasi turli xalqlar tomonidan yaratilgan noyob madaniyat aa axloq durdonalari, deyish mumkin. Biroq zamon va turli davrlar hamda turli tuzumlar tufayli bu odat-an’analar bir-birlari bilan qorishib ketgan vaqtlar ham bo‘lgan.

Bugun, ayniqsa yoshlarimiz orasida ko‘p kuzatilayotgan o‘pishib ko‘rishish odatini Yevropa madaniyatiga xos va qisman sobiq tuzum sarqiti, deb qarasak, noto‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Bundan tashqari, salomlashish shart bo‘lmagan holatlar ham borki, buni bilish har bir madaniyatli, esli-hushli kishining burchi hisoblanadi. Bunday holat ovqatlanayotgan odamlarga nisbatan va ulfatlarning suhbati qizib turgan, jamoat joylarga kech qolgan kishi, yoshi ulug‘ odam va erkak kishi tomonidan salomga qo‘l cho‘zilmaydigan holatga taalluqli.

Falsafa fanlari nomzodi Karim Mahmudov o‘zining “Mehmonnoma” nomli kitobidagi kirish so‘zida: “*Salomlashish, so‘rashish, ko‘rishish insonga xos bo‘lgan ajoyib fazilat, odamiylikning ko‘rki, asrlar davomida tarkib topgan va kishilarning o‘zaro aloqalaridagi tamoyillarni hamda axloqiy qiyofalaridagi me’yorlarni ifodalaydigan belgi hisoblanadi*”, deb yozadi. Demak, har birimiz odamiylik ko‘rkiga munosib bo‘lmog‘imiz, uni turli yot qiliqlar bilan aralashtirib, xira torttirmasligimiz lozim.

Abdulhamid MUXTOROV

Muloqot

YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Harbiy prokuratura organlari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishidagi amaliy tadbirlar izchil davom etmoqda. Xususan, Urganch tumanining Oq oltin mahallasi mas’ullari hamkorligida otaliqqa olingan yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

Unda yoshlarning ijtimoiy holati, qiziqishlari va kelgusi rejalari o‘rganildi. Jarayonda “mahalla yettiligi” va boshqa mutasaddilar bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

Tadbir 2-sonli kasb-hunar maktabida “Prokurorlik soati” shaklida davom etdi.

Unda vatanparvarlik, harbiy xizmat, burchga sadoqat, el-yurt taqdiriga daxldorlik mavzularida o‘quvchilarga tushunchalar berildi.

Adliya kapitani Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy prokurorining katta yordamchisi

Termiz harbiy prokuraturasi va kuch tuzilmalar hamkorligida Muzrabot tumanining olis chegaraoldi hududidagi Bog‘i Eram mahallasida vatanparvarlik tadbiri o‘tkazildi. Unda Chegarachi, Yangi diyor va Alpomish mahallalarida istiqomat qiluvchi 400 ga yaqin yosh ishtirok etdi.

VATANPARVARLIK TADBIRI

Ko‘tarinki kayfiyat va samimiy ruhda o‘tgan tadbirda milliy o‘yinlar va sport turlari bo‘yicha bellashuvlar uyushtirildi. Yakunda g‘oliblar va faol ishtirokchilar munosib taqdirlandi.

Harbiy orkestr jamoasi, faxriy qorovul chiqishlari va harbiy qurol-yarog‘lar ko‘rgazmasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Adliya leytenanti Sardor HABIBULLAYEV,
Termiz harbiy prokuraturasi tergovchisi

So‘ragan edingiz

SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol: Uzoq muddatli imtiyozli ipoteka krediti olgan harbiy xizmatchining kredit qarzi qaysi hollarda ish joyidan qoplab beriladi?

Javob: Qonunchilikka ko‘ra, Qurolli Kuchlarning harbiy xizmatchilariga turarjoy sotib olish *(qurish)* uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari beriladi.

Bunda imtiyoz uy-joy narxining 25 foizi belgilangan tartibda davlat tomonidan qoplab berish shaklida amalga oshiriladi.

Shuningdek, yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkasi olgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari yer uchastkasini mustaqil o‘zlashtirish davrida xizmat turarjoyidan *(mavjud bo‘lganda)* foydalanish huquqiga yoxud to‘liq 24 oygacha bo‘lgan muddatda turarjoy ijaraga olinganligi *(ijarada turganlik)* uchun har oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega.

Harbiy xizmatchi halok bo‘lgan yoki u xizmat vazifalarini bajarishda og‘ir tana shikastlanishi oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, qaytarilmagan kredit summasi va u bo‘yicha hisoblangan foizlar tegishli idora rahbarining qarori asosida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga qaytariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati

“O‘zarxiv” 105 yoshda

“G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasida “Tarixiy xotiradan Yangi O‘zbekiston sari” nomli anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi va O‘zbekiston Milliy arxividagi tarixiy foto va hujjatlar ko‘rgazmasi tashkil etildi. Anjuman ishtirokchilari shu kuni arxiv ishi sohasi tarixi va uning rivojlanish bosqichlari bilan tanishdi.

AJDODLAR MEROSI — O‘CHMAS XOTIRA



Muallif suratga olgan

Mutaxassislar bergan ma’lumotga ko‘ra, o‘zbekiston arxivlarida saqlanayotgan eng qadimiy hujjatlar IX asrga tegishli bo‘lib, u Buxoro shohi Ismoil Somoniyning o‘z avlodlariga atab vaqf qilingan yerlar haqidagi ma’lumotlar to‘plami ekan. Bu kabi to‘plam 1 500 dan ortiq bo‘lib, ularning eng uzuni 83 metr, eng qisqasi 20 santimetrni tashkil etadi.

Saqlanayotgan qadimiy hujjatlar asosan arab, fors-tojik, eski o‘zbek va rus tillaridagi hujjatlar sanaladi. Xususan, ular uch davrni: tarixiy davr *(1917-yilgacha bo‘lgan)*, sho‘rolar davri *(1917–1991-yilgacha)* va mustaqillik davri *(1991-yildan hozirgi kunga qadar)*ni o‘z ichiga oladi.

Qolaversa, ayni vaqtda mazkur arxivlarda 800 ming saqlov birligidan ortiq alohida qimmatli hujjat saqlanmoqda, ular jumlasiga “Vaqf hujjatlari kolleksiyasi” (IX asrdan – XX asr boshigacha), “Xiva xonlari kanselyariyasi” (XVII asr boshidan – XX asr boshigacha), “Buxoro amirligi” (XIV asr boshidan – XX asr boshigacha), “Qo‘qon xonligi” *(XVIII asr boshidan – XIX asr oxirigacha)* va boshqalar kiradi.

Saqlanayotgan hujjatlarning noyobligi va dunyo tamadduni tarixida tutgan o‘rnini YUNESKO tomonidan 2017-yilda “Xiva xonlari kanselyariyasi” hujjatlari “Jahon xotirasi” dasturining xalqaro ro‘yxatiga kiritilganidan ham bilib olish mumkin.

Tadbirda namoyish etilgan arxiv ishi sohasining tarixi muvaffaqiyati, rivojlanishi, shuningdek millatimiz ziyolilarining boshdan kechirgan murakkab sinovlari aks ettirilgan fotoko‘rgazmalar tadbir ishtirokchilarining tasavvurlarini boyitdi.

Anjumanda polkovnik Shuhrat Yusupov so‘zga chiqib, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasining faoliyati va “Shon-sharaf” davlat muzeyi fondini Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq hujjatlar va eksponatlar bilan doimiy ravishda boyitib borishda “O‘zarxiv” agentligi bilan olib borilgan hamkorlik ijobiy samara berganini ta’kidladi. Qolaversa, O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, front ortidagi mehnat qahramonlari, yurtimizga evakuatsiya qilingan bolalarning bag‘rikenglik bilan kutib olinishi va ularga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatilishi singari tarixiy voqealarni aks ettiruvchi fotohujjatlarning muzeydan joy olishi, yosh avlodning ma’naviy olamini yuksaltirishda, ularni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda naqadar ahamiyatli ekaniga urg‘u berdi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

QAYTAR DUNYO

(voqeiy hikoya)



Shafoat momo tashqariga umidvor termildi. Hovlida hech zog‘ ko‘rinmaydi. Nevaralarim ko‘zga tashlanmayapti, ko‘chaga o‘rtoqlari bilan o‘ynagani chiqib ketgan bo‘lsa kerak. Nima bo‘lgandayam, o‘g‘il bolalar-da, bir joyda turolmaydi. Mahkamjon ishga ketgan chog‘i, oldimga eson-omon tong ottirib oldingizmi, deb kirmadi ham. Duomni olib ketsa yaxshi bo‘lardi, xo‘rsindi, ona. – Kelin choy-poy qilib bermasmikan, qornim ochqadi, ko‘nglim ozyapti-da, – hovli tomon ko‘zlari javdiradi onaning. – Qarilik qursin, oyoqlarda quvvat yo‘q, bir qadam bossa qaltiraydi. Sakkiz o‘g‘il-qizning yettitasi yetti tomonda. Kenjasi bilan birga yashaydi. Qizlari biri qo‘yib, biri xabar olib turadi-yu, oldida uzoq qola olmaydi, uyiga shoshiladi. Mayli, boriga shukr, hammasi o‘zi bilan o‘zi tinib-tinchisin. Qani endi, bir qoshiq suyuq ovqat bo‘lsa!” Ochlik yenggan momo kelinini chaqirishga tutindi:

– Asilaxon, hooy Asilaxon, qayerdasiz, qizim?

– ...

– Asilaxon, choy qilib berasizmi, bolam?!

– Aya, namuncha baqirdingiz? – bir ko‘zi qo‘lidagi telefon ekranida, bir ko‘zi onasida Mahkam kirib keldi.

– Bolam, uydamiding, bugun seni ko‘rmadim, yaxshi dam oldingmi? Ertalab birrov kirsang bo‘ladi-ku, o‘g‘lim!

– O‘zi shu bugun uyda qoldim, nolimasangiz-chi, aya, – zarda qildi o‘g‘il. – Har kuni ertalab ishga ketaverib charchabman, hozir uyqudan turdim. Tinchlikmi, keliningizda nima ishingiz bor edi?

– Qornim ochqadi, o‘g‘lim, Asilaxon tushlikka ovqat-povqat qildimikan deb...

– Aya, soat endi o‘n bir bo‘ldi, darrov qorningiz ochqadimi?

– Ertaroq nonushta qilgandim, keyin ertalabda ishtaha ochilishi qiyin, shunga Asilaxon...

– Asila tog‘asinikiga sunnat to‘yga ketgan-ku. Sizga aytgan bo‘lsa kerak. “Ayamga choy qilib berdim, tushlikkacha kelaman, to‘ydan osh olib kelaman”, degandi.

– Haa, aytgandi, hushim qursin, xayolimdan ko‘tarilibdi. Soat to‘qqizda xotinoshi, shunga boraman-u qaytaman, degandi.

– Ozgina sabr qilsangiz, osh olib keladi, yaxshi o‘tiring, – Mahkam telefonga qanday termilib kirgan bo‘lsa, shu holatda chiqishga shaylandi.

– O‘g‘lim, hech bo‘lmasa, choy damlab ber, non ivitib, yeb turardim, bolam!

– Hozir choy qo‘yaman, baqir-chaqir qilmay o‘tiring!

Shafoat momo o‘g‘lining orqasidan xomush qaragancha qoldi. Choli bo‘lganda-ku, qiynalmasdi, bir-birlariga mehribon, suyanchiq, sirdosh edi. Cholining o‘tganiga ham o‘n yil bo‘lyapti. Ular bir etak o‘g‘il-qizni ulg‘aytirishdi, uyli-joyli qilishdi, o‘ttizga yaqin nabiralar ko‘rishdi. To‘y-ma’rakalarga bosh bo‘lib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, duolar qilishdi. Endi bo‘lsa... qarilik yengib, o‘zingni o‘zing eplolmay qolganingda hech kimga keraging yo‘qdek, go‘yo. Shunday pallada bolalarga malol kelayotganingni bilib yashash... Mayli, dog‘ini ko‘rsatmasin, hammalari unib-o‘ssin. Saksondan oshganingdan keyin u yog‘iga qancha umr qoldi, o‘ziga ayon. Nima bo‘lgandayam, keksayganingda yoningda kimdir borligiga nima yetsin. Momoning mahzun o‘ylarini kelini Asilaning tovushi bo‘ldi:

– Aya, zerikmay o‘tiribsizmi, qarindosh-urug‘lar davrasidan chiqib kelish qiyin bo‘ldi. Barchalari sizga salom aytdi, – u gapirish asnosida qaynonasining oldiga to‘ydan keltirgan dasturxonni qo‘ydi. – Osh olib keldim, bolalar bilan o‘g‘lingizni chaqiray, issig‘ida yeb olinglar. Bolalarimning rosa qorni ochqagandir, – tashqariga shoshildi u.

– Dasturxonni ochib bermaysizmi, qizim?

– Aya, osh sovib qoladi-ku, ozgina kuting, – ovozini bir pog‘ona ko‘tardi, qovoqlari uyilgan kelin.

Shafoat momo vujudi qaltiragan ko‘yi jim qoldi. Va nihoyat o‘g‘li va nabiralari jam bo‘ldi. Ular oshni mehr bilan tanovul qilar, allaqachon tishlari to‘kilib ketgan momoga oshning guruchi qattiqlik qilgani bois choyga non botirib, yeya boshladi. Shu fursatda qo‘lida narsa ko‘tarib, qo‘shni kelin kirib keldi.

– Yaxshi o‘tiribsizlarmi, xolajon, sog‘lig‘ingiz yaxshimi? Sizga qiymali mastava olib chiqdim, issig‘ida ichib oling!

– Rahmat qizim, boringizga shukr, o‘rtog‘im Xolniso yaxshimi? Yoshimiz ulg‘ayib bir-birimizdan xabar ololmay qoldik. Ko‘rganimga bir hafta bo‘ldiyov.

– O‘zlari ham chiqishmoqchi edi, mehmon kelib qoldi. Mayli, men kiray, xolajon.

– Nazokatxon, to‘yga bormadingiz? – Asila qo‘shni kelinni savolga tuta ketdi. – Keyingi paytlarda qishloqdagi to‘ylarda kam ko‘rinyapsiz, tinchlikmi?

– Hammasi joyida, o‘rtoqjon, qaynonam keksayib qoldilar. Oldilarida odam bo‘lmasa, yolg‘iz tashlab keta olmayman. Xo‘jaynim ham yolg‘iz qolishini xohlamaydi. Keyin soat o‘n birlarda, albatta, birorta suyuq ovqat tayyor qilishim shart. Qarini ovqat saqlaydi, deyishadi. Qaytar dunyoda bizga ham shunday keksayib yurish, farzandlarimiz mehri nasib qilsin, ilohim.

Qo‘shni kelinning gaplaridan Asilaning qoshlari chimirilgan bo‘lsa, volidasiga e’tiborni unutgan Mahkam, og‘zidagi oshni yuta olmay, jim qoldi...

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

OTA-ONANG QADRIGA YET!

Sekinlashgan, ildam emas yurishlari,
Tik bo‘lmaydi, qaddin rostlab turishlari,
Shodon emas, sal g‘amginroq kulishlari,
Onangga boq, guldek yuzi so‘lib qoldi,
Avvalgidek emas otang, qarib qoldi.

Sekin chaynab, to‘kib yesa ovqatini,
Yaxshi gapir, sinamagin toqatini,
Qachon ko‘rding, oromini, rohatini?
Onangni ko‘r, guldek yuzi so‘lib qoldi,
Avvalgidek emas otang, qarib qoldi.

Qo‘ng‘iroq qil, sog‘lig‘ini so‘rab qo‘ygin,
Pul-mul berib, ust boshiga qarab qo‘ygin,
Tirigida bir kuniga yarab qo‘ygin,
Onangni ko‘r, guldek yuzi so‘lib qoldi,
Avvalgidek emas otang, qarib qoldi.

Sochlarining oqi ko‘pdir qorasi yo‘q,
Dam olgisi kelar iloj, chorasi yo‘q,
Haftasiga to‘liq ish kun, olasi yo‘q,
Otangga boq, bolam, otang qarib qoldi,
Onangni ko‘r, guldek yuzi so‘lib qoldi.

Urishsa ham og‘ir olma, kulib qo‘ygin,
Abadiymas ota-ona bilib qo‘ygin,
Har xil ishga tayyorgarlik ko‘rib qo‘ygin
Onangni ko‘r, guldek yuzi so‘lib qoldi,
Avvalgidek emas otang, qarib qoldi.

Dildora MAMAJONOVA

Yong‘in xavfsizligi

QISH MAVSUMIGA TAYYORMISIZ?

Keyingi yillarda aholi orasida tabiiy gazdan va gaz uskunalaridan noto‘g‘ri foydalanish ko‘plab baxtsiz hodisalarga va noxush oqibatlarga olib kelayotganiga guvohmiz. Soha mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o‘rganilganda, aholining gaz asboblaridan foydalanish qoidalariga rioya etmagani, bu borada malakaga ega emasligi aniqlangan.

Ma’lumki, hozirgi kunda tabiiy yoki suyultirilgan gaz kirib bormagan xonadonning o‘zi yo‘q. Ya’ni uning turmushimizdagi o‘rni beqiyos. Lekin unutmaslik kerakki, biz uchun qulaylik manbai bo‘lgan gazdan foydalanishda e’tibor va xushyorlik zarur. Chunki gazsimon yonilg‘ilarning barcha turlari yong‘inga xavfli hisoblanadi. Eng yomoni, gazlarning havo bilan ma’lum miqdordagi aralashmasi portlashga sabab bo‘ladi. Afsuski, ba’zi xonadonlarda gaz anjomlariga rezina shlanglar ulab foydalanish, gaz taqsimlash qurilmalariga o‘zboshimchalik bilan ulanish, yoki nosoz isitish pechlaridan foydalanish, dudburonlar tozaligiga e’tibor bermay ishlatish holatlari uchrab turibdi.

Biroq tabiiy va is gazidan zaharlanish asosan havo haroratining pasayishi kuzatiladigan qish faslida ro‘y berayotganligi sababli ularning oldini olish uchun mavsum avvalida isitish moslamalari va tutun mo‘rilarining kanallarini O‘zbekiston yong‘inga qarshi kurash jamiyati va uning hududiy bo‘limlari tomonidan ko‘rikdan o‘tkazish shart. Shuningdek, gaz isitish pechlarining soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilib turish, tunda ularni o‘chirib qo‘yish zarur. Zero e’tiborsizlik qilib hayotingizni xavfga qo‘ymang!

Podpolkovnik Zokir KENJAYEV,
Mudofaa vazirligi yong‘in xavfsizligi xizmati boshlig‘i

Salomatlik

OIV VA OITS
YUQUMLI KASALLIK



Butun jahonda millionlab insonlarning umriga zomin bo‘layotgan, ko‘plab oilalarning tinchligini buzayotgan va shu bilan birgalikda mamlakatlar iqtisodiga katta zarar yetkazayotgan OIV infeksiyasi o‘zining oqibatlari bilan insoniyatning eng dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda. Chunki dunyoda OIV infeksiyasi epidemiyasi tez sur’atlar bilan tarqalmoqda. Masalan, so‘nggi 20 yil davomida OITS tufayli 20 mln.dan ziyod odam vafot etdi, qariyb 50 mln kishi kasallandi. Ayni vaqtda Yer yuzida OIV bilan yashayotgan shaxslar soni 33,4 mln.ni tashkil etadi.

Bu virus odamning himoya vositasi hisoblanmish immunitet tizimini chuqur jarohatlaydi. Kasallik manbai OIV infeksiyasiga chalingan bemor va ko‘rinishdan sog‘lom bo‘lgan virus tashuvchi insonlar hisoblanadi. OITS *(SPID)* – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi esa OIV infeksiyasining yakuniy bosqichi bo‘lib, bu davrda inson organizmi har qanday kasallikka bardosh berish xususiyatini yo‘qotadi.

OIVning kelib chiqishi to‘g‘risida 3 ta nazariya mavjud. Bu virus yangi bo‘lib, evolyutsiya yo‘li bilan simian maymunlaridan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Bir guruh olimlar esa bu virus inson organizmida avvaldan mavjud bo‘lgan va kasallik yengil shaklda o‘tgan, keyingi yillarda virus mutatsiyaga uchragan deb hisoblashadi. Bunday nazariya tarafdorlari 1968-yilda vafot etgan Sent-Luis shahridagi bir besoqolbozning muzlatib qo‘yilgan to‘qimalari namunasida ushbu virusning bir turi aniqlanganini sabab qiladi. Uchinchi guruh olimlar esa virus tahlilxonalarda gen injeneriya usulida olimlar tomonidan bakteriologik qurol sifatida sun’iy yaratilgan, degan fikrni ilgari suradi.

Umuman olganda, OIV infeksiyasi surunkali kasallikdir. Uni butunlay davolash imkoni hali mavjud emas. Shuning uchun bu kasallikka chalingan bemorlar umri davomida tibbiy yordamga muhtoj bo‘ladi. Faqatgina virusga qarshi dori vositalari yordamida OIVni yuqtirgan odamlar umrini uzaytirishi mumkin.

QANDAY YO‘LLAR BILAN YUQADI?

Kasallik asosan 3 xil yo‘l bilan yuqadi:

1. Jinsiy aloqa yo‘li – tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchi shaxslar orasida uchraydi.

2. Parenteral yo‘l – bu OIV infeksiyasining qon orqali yuqishi sanaladi. Kasallikning qon orqali yuqishiga giyohvand moddalarni infeksiya yo‘li bilan qabul qilish, bemorlarni davolash jarayonida zararsizlantirilmagan asbob-anjom, shpris va ignalardan foydalanish, yoki OIV infeksiyasi bilan zararlangan qon quyish, soch-soqol, manikyur, pedikyur ishlarida to‘liq zararsizlantirilmagan asboblardan foydalanish sabab bo‘ladi.

3. Vertikal yuqish yo‘li – virus bilan kasallangan ayoldan homiladorlik davrida yoki tug‘uruq jarayonida onadan bolaga o‘tadi.

KASALLIKNING DASTLABKI BELGILARI

Kasallikning klinik kechishi boshqa yuqumli kasalliklardagi singari bir necha davrlarga bo‘linadi. Kasallikning yashirin davri hech qanday klinik belgilarsiz 5-6 oy, hatto 5-15 yilgacha davom etishi mumkin. Bu holat inson organizmining immun tizimi chidamliligiga bog‘liq. Aslida bu davr epidemiologik jihatdan eng xavfli hisoblanadi. Chunki OIV bilan zararlangan odam muayyan vaqtgacha virus ta’sirini sezmaydi va kasallikni o‘zi bilmagan holda boshqalarga yuqtirib yuraveradi. Yashirin davr o‘tgandan so‘ng inson organizmida virus o‘zining ta’sir kuchini ko‘rsatadi, kasallikning dastlabki klinik ko‘rinishi grippga xos belgilar bilan kechadi. Bunda kamquvvatlilik, ishtahaning pasayishi, ko‘p terlash, tana haroratining ko‘tarilishi, limfa bezlari, jigar, taloqning kattalashuvi kuzatiladi. Bo‘g‘inlarda og‘riq, bemor terisida har xil toshmalar paydo bo‘ladi, yo‘tal, sababsiz ich ketishi boshlanadi va bu hol uzoq davom etishi mumkin. Bemor turli kasalliklarga beriluvchan bo‘lib qoladi va bu holat tez-tez qaytalanib turadi.

KASALLIKNING OLDINI OLISH UCHUN...

Bu borada aholining barcha qatlami o‘rtasida, ayniqsa yoshlar orasida, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, tartibsiz va himoyalanmagan jinsiy aloqadan saqlanish, tibbiy muolaja olayotganda tibbiy anjomlarning zararsizlantirilganligiga ishonch hosil qilish, maishiy xizmatdan foydalanayotganda *(soch va soqol oldirayotganda, manikyur, pedikyur qildirayotganda)* asboblarning gigiyenik tozaligiga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

G. XODJAMURATOVA tayyorladi.

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

QULAY SHAROIT – KENG IMKONIYAT

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiqo‘rg‘on tumani o‘quv sport-texnika klubida yoshlarni ijtimoiy foydali va ommaviy vatanparvarlik ishlariga ko‘proq jalb etish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlar, ayniqsa “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan yanada izchil tus olmoqda.









Xususan, klub jamoasi tashabbusi bilan tumandagi mahallalar, o‘quv muassasalari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkazilayotgan tadbirlar ham ushbu muhim sanaga bag‘ishlanmoqda.

– Tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o‘tkazilayotgan tadbirlarda ko‘plab o‘quvchi-yoshlar faol ishtirok etdi, – deydi O‘STK boshlig‘i Alijon Tojiboyev. – Albatta, muhim sana munosabati bilan o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarimiz qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar kamolotida alohida ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘STKda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to‘garaklari ishini yo‘lga qo‘yishga ham e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda klub qoshidagi “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Motosport”, “Yozgi biatalon” hamda “Karting” kabi sport seksiyalarida faoliyat yuritayotgan yoshlar turli sport musobaqalarida ishtirok etib, yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda.

Tashkilotning yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri – avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida ham ko‘plab ishlar qilinmoqda. Buning uchun yaqinda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan mazkur O‘STK avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ldi. Shu kunlarda klubda “B”, “BC”, “BE”, “CE” toifali haydovchilikka nomzodlar o‘qitilmoqda.

O‘z navbatida, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda bo‘lajak haydovchilarning malakasini oshirish maqsadida barcha zarur sharoitlarning mavjudligi ham xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Ayollar bekati



TAOMLANISH MAZALI, NAFAS OLISH-CHI?

Tayyorlagan ovqatlaringiz qanchalik lazzatli bo‘lmasin, undan so‘ng oshxonadagi hidlar ta’bingizni xira qiladi. Shu sababli taom tayyorlash jarayonida dudburonni ishlatish ayni muddao. U havoni zararli birikmalar (formaldegid, ammiak, benzopiren, xrizen, perilin) va yoqimsiz hidlardan tozalashga yordam beradi. Bu birikmalar turli oziq-ovqat mahsulotlarini qizdirish, qovurish, qaynatish jarayonida yuzaga keladi. Gaz komforkalarini ishlatganimizda esa qo‘shimcha ravishda uglerod dioksidi, azot, radon, is gazi kabi yanada xavfli birikmalar “guldasta”siga ega bo‘lamiz.

Kun davomida 3 mahal tayyorlangan taom xonada 1 kg.ga yaqin is gazi yig‘ilishiga asos bo‘ladi. Gaz plitasining 4 ta komforkasi 1 soat davomida yonganda esa havodagi formaldegid miqdori ikki barobarga oshadi.

Sanitariya me’yorlariga ko‘ra, oshxonadagi havo 1 soatda kamida 10 marta o‘zgartirilishi kerak. Dudburonni ishlatganingizda xonadagi havoning ma’lum miqdorini tozalaysiz.

Har doim gazdan foydalanganingizda toza havo aylanib turishi uchun oshxona derazalarini ochib qo‘yishga harakat qiling! Dudburonni har qanday ovqat tayyorlashda, hatto bug‘da pishirganingizda, pechdan foydalanganingizda ham ishlating. Uning ishlash rejimi xonadagi bug‘lanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Tayyorlash jarayoni tugaganidan so‘ng ham kamida 10 daqiqa minimal tezlikda dudburonni ishlatish xonadagi havoni xavfsiz gazlardan tozalashga yordam beradi.

Oshxonada gaz plitasidan tashqari, havoni zaharlaydigan boshqa ta’sirlar ham bisyor. Oshxona jihozi havoga formaldegid chiqaradi, ayniqsa u yangi bo‘lsa yanada ko‘proq. Bundan tashqari, turli kimyoviy moddalarni o‘zida saqlovchi tozalash vositalari ham havoni zaharlaydi. Agar uyda chekuvchilar bo‘lsa, bu ham havoning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Kun davomida gaz plitasida hech narsa tayyorlamagan bo‘lsangiz ham, uyni tozalashga kirishganingizda ham dudburonni ishlatib turing! U havoning bir qismini tortib, uning doimiy almashinib turishini ta’minlaydi.

Dudburondan foydalanishning yana bir afzalligi u tozalikni saqlashga yordam beradi. Ovqat tayyorlash jarayonida yog‘ zarrachalari mebellar yuzasi va boshqa oshxona jihozlariga yopishib qoladi. O‘z vaqtida tozalab turilmasa, uni ketkazish juda qiyinligini ayollarimiz yaxshi bilishadi. Qurilma yog‘li havo zarrachalarining sirtga o‘tirishiga to‘sqinlik qiladi, ishingizni osonlashtiradi. Faqat undagi filtrni vaqti-vaqti bilan tozalab turish lozim. Buni 2-4 oyda bir marta amalga oshirib turish kifoya.

Uzumning foydasi

Uzum – foydali vitaminlar va minerallar xazinasi. Uning tarkibida C, A, PP va B, K vitaminlari mavjud. Shuningdek, uzumda natriy, kalsiy, temir, fosfor, bor, ftor, nikel, marganes, sink va ko‘pgina boshqa foydali metallar, minerallar hamda bir qator nodir foydali moddalarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari, uning tarkibida saraton kasalligi paydo bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatuvchi fitosterin deb nomlanuvchi modda bor. Uzum immunitetni va yurak mushaklarini mustahkamlaydi, tomirlarni kengaytiradi va bosh og‘rig‘ini bartaraf etishda yordam beradi. U qon tarkibidagi xolesterin miqdorini kamaytiradi, ichni yurgizadi.

Uzum parhez mevasi emas, shuning uchun uni me’yorida iste’mol qilish lozim. Ozuqaviy quvvati baland emas, lekin uning ishtaha ochish xususiyati kuchli bo‘lganidan, ko‘proq ovqat yeyishga sababchi bo‘ladi.

Uzumni nafaqat shirinlik sifatida, balki dori-darmon o‘rniga tanovul qilish mumkin. U quyidagi kasalliklarda yordam beradi:

- astma kasalligida foydali hisoblanadi;
- qon quyuqlashishining oldini oladi;
- charchoqni bartaraf etadi;
- antioksidantlarni o‘zida saqlashi sabab ham terini uzoq vaqt davomida qarishining oldini oladi;
- oshqozon-ichak tizimini tozalaydi.

Shuningdek, uzumning foydali xususiyatlari uning rangiga qarab farq qiladi. Sariq va yashil rangli uzumlar o‘t haydovchi ta’sirga ega, to‘q rangli uzumlar esa gemoglobinni ko‘tarib, qon bosimini normallashtiradi.



Pazanda



Uzumli murabbo

Kerakli masalliqlar: 1 kg uzum, 1 kg shakar, 0,3 litr suv, limon kislotasi, vanilin.

Tayyorlanishi: murabbo uchun shakar va suvni qaynatib, qiyom tayyorlaymiz. Limon kislotasini qo‘shib, tilla rangga kirguncha qaynatamiz. So‘ng uzumlarni dona-dona qilib solamiz. O‘zgacha ta’m berishi uchun vanilin qo‘shamiz. Uzumlar ezilmasligi uchun orada 10-15 daqiqa olovni o‘chirib, qaynatishni davom ettiramiz. 3 marta shu tartibda qaynatib olsak, uzumlar ezilmasdan dona-dona bo‘lib pishadi.

Qish kunlarida dasturxonimizning eng xushbo‘y, mazali va o‘zgacha ko‘rki bo‘ladi.

Yoqimli ishtaha!

Sahifani Zebo SARIYEVA tayyorladi.

Detektiv qirolichasi



1926-yilning 3-dekabr kuni Angliya janubidagi xonadonlardan birida ro‘y bergan ko‘ngilsizlik minglab kitobxonlar o‘rtasida katta shov-shuvga sabab bo‘lgandi. Ingliz millati o‘rtasida ancha mashhur hisoblangan bu oilaning janjaliga xiyonat sabab bo‘lgan o‘shanda. Ayol erining xiyonatini kechira olmagan. Bu voqea uning nozik qalbini qattiq og‘ritgan, hattoki hayotini ham butunlay o‘zgartirib yuborgan. Dunyoga mashhur detektiv romanlarning yozilishiga ham erining xiyonati sabab bo‘lgan deyishadi. U detektiv qirolichasi Agata Kristi edi.

Kristining 60 ta detektiv, 6 ta psixologik romani va 19 ta hikoyalar to‘plami nashr qilingan. Barcha kitoblari 4 mlrd.dan ortiq nusxada jahonning yuzlab tillariga tarjima qilingan. Yozuvchi har bir romanida qiziqarli syujetlar, kutilmagan yechimlar, yorqin personajlardan foydalangan.Tasavvur olami cheksiz, fantaziyasi kuchli ekanini, hattoki kichik hikoyalaridan ham bilsa bo‘ladi. Shuning uchun kitobxonlar uning asarlarini kuchli hayajon, biroz hadik bilan o‘qishadi. Qizig‘i shundaki, xoh u katta hajmdagi roman yoki kichik bir hikoya bo‘lsin, voqealar yechimini asar so‘ngigacha bilib bo‘lmaydi. Kutilmagan xotima esa har qanday yoshdagi kitobxonni esankiratib qo‘yadi. Mutolaadan so‘ng istaysizmi-yo‘qmi, asar voqealarini birma-bir muhokama qilishga majbur bo‘lasiz, bu sizga zavq bag‘ishlaydi.

Dyuma va xizmatkorlari




Aleksandr Dyuma asar yozishda yordamchilardan unumli foydalangan. Ular orasida Ogyust Make ancha mashhur edi. Dyumaning taniqli biografi, yozuvchi Klod Shopp guvohlik berishicha, aynan Ogyust Make “Graf Monte Kristo” asari syujetini o‘ylab topgan va “Uch mushketyor” asari shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Ammo Dyumaning iqtidorini ham alohida ta’kidlash zarur. Garchi ba’zi asarlari yordamchilarining qo‘lyozmalaridan “o‘sib” chiqqan bo‘lsa-da, yorqin detallar va hayotiy dialoglar yozuvchi iste’dodining mahsuli edi.

Eng qisqa yozishma



Viktor Gyugo 1862-yili ta’tilda dam olayotgan chog‘i yaqindagina chop etilgan “Xo‘rlanganlar” romaniga kitobxonlarning munosabatini bilgisi keladi va o‘z noshiriga faqat “?” belgisidan iborat telegramma jo‘natadi. Noshir ham javob tariqasida bitta “!” belgisidan iborat telegramma yo‘llaydi. Shubhasiz, bu tarixdagi eng qisqa yozishma edi.

Mark Tven o‘tmagan yo‘l



Mark Tven yangi qurilgan magistraldan o‘tayotib quyidagi yozuvni o‘qiydi: “Bu yo‘ldan Mark Tven o‘tgan. Yo‘ldan o‘tish narxi – 10 sent”. Tven xo‘jayinga yuzlanib, bu yo‘l endigina qurilganini, bu yerdan biror marta o‘tmaganini aytadi. Ertasi kuni e’lon o‘zgaradi: “Hozirgina mashhur yozuvchi Mark Tven bu yo‘ldan o‘ta olmadi. Siz esa o‘tish uchun endi 25 sent to‘laysiz. Bu haqda Mark Tvenning yangi romanida o‘qing!” Yozuvchi xo‘jayinga o‘z g‘azabini namoyon qilgach, e’lon yana almashtiriladi: “Hattoki mashhur Mark Tven bu yangi yo‘lning ko‘rkamligini ta’riflashga so‘z topa olmayapti. Endi siz yo‘ldan o‘tish uchun 50 sent to‘laysiz”.

***


Mark Tven gazetada muharrir bo‘lib ishlagan. Bir safar unga pochta orqali o‘quvchilardan birining xati, uning ichidan esa xarob ahvoldagi she’r chiqadi. She’rning nomi ham ajoyib: “Men nega tirikman?” Mark Tven chala shoirga xat yuboradi: “Xatni shaxsan o‘zingiz olib kelmaganingiz tufayli tiriksiz”.

Pushkin va “Revizor”



Mashhur rus yozuvchisi Gogolning “Revizor” pyesasiga asos bo‘lgan voqea Rossiyaning Novgorod guberniyasidagi Ustyujna shahrida bo‘lib o‘tgan. Bu haqda muallifga Pushkin aytib bergan va asar yozilishiga sababchi bo‘lgan. Gogol “Revizor”ni tashlab qo‘ygan paytlarda ham aynan Pushkin tugallashga undagan.

Faxriy vodoprovodchi



Bir uchrashuvda jurnalistlardan biri Eynshteynga odatiy savolni beradi: “Agar fizik bo‘lmaganingizda qaysi kasbni tanlar edingiz?” Eynshteyn miyig‘ida kulib: “Albatta, vodoprovodchi”, deb javob beradi. Qizig‘i, biroz vaqt o‘tib, AQSh vodoprovodchilari kasaba uyushmasi Eynshteynni “Faxriy vodoprovodchi” unvoni bilan taqdirlaydi.

***

Eynshteyn ma’lum muddat ixtirolarga patent beruvchi idorada ishlagan. O‘sha paytda u qiziq bir narsani payqab qoladi. Uning aytishicha, barcha buyuk yangilik va ixtirolar odatda ikki so‘zdan iborat jumladan boshlangan ekan: “Bu imkonsiz!”

G. TURSUNBOYEVA tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi:
podpolkovnik Faxriddin Nutfillayev

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5853
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 970 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya